



O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ  
HUZURİDAGI PEDAGOG KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MİNTAQAVİY) MARKAZI

# BARQAROR RIVOJLANISH ATROF-MUHİT MUHOFAZASI VA UZLİKSİZ TA'LIM

MODULI BO'YICHA  
**O'QUV-USLUBIY**  
**MAJMUA**

**2024**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“BARQAROR RIVOJLANISH-ATROF-MUHIT MUHOFAZASI  
VA UZLIKSIZ TA'LIM”**

**MODULI BO'YICHA**  
**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar:** O‘zMU, dotsent R.Allaberdiyev.

**Taqrizchilar:** Toshkent davlat transport universiteti, “Transport energetik qurilmalari” kafedrasi professori, f.f.d. Yu. Shodimetov.

*O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori  
bilannashrga tavsiya qilingan (2024 yil 20-yanvardagi №4/2 -sonli  
bayonnomasi)*

## MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| I. ISHCHI DASTUR .....   | 4.  |
| II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI . | 20  |
| III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....                            | 40. |
| IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....                             | 60  |
| V. KEYSLAR BANKI.....  | 30  |
| VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI .....                                  | 60. |
| VII. GLOSSARIY .....   | 71. |
| VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....                                     | 90. |

## I.ISHCHI DASTUR

### Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28- yanvardagi “2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir bиринчи navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma‘naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta‘limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamlı kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta‘lim sifatini ta‘minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

### Malakaviy attestatsiya

### Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsionyondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Sanoat ekologiyasi**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta‘lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta‘minlash;

- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta‘minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“**Sanoat ekologiyasi**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

### **Kurs yakunida tinglovchilarining bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- Oliy ta‘lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta‘lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta‘lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligining ta‘lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta‘lim standartlari, ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura

mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;

- ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo'nalishlarni;
  - zamonaviy ta'limning global trendlarini;
  - inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'limning yoshdagi ahamiyatini;
    - oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
    - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
    - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
    - universitetlarning zamonaviy modellarini;
    - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
    - tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
    - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
    - innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;
    - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
    - kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
    - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
    - pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
    - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;
    - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
    - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
    - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
    - ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
    - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
    - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;

- sanoat ekologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini;
- sanoatsozlikka oid normativ hujatlarni;
- sanoatlashgan shaharlarni inson salomatligiga ta'sirini;
- o'zgargan atmosfera havosi va uning tarkibini;
- atmosfera havosining sun'iy ifloslanish sabablari va oqibatlarini;
- sanoat zonalari monitoringini;
- sanoatlashuv va urbanizasiyani;
- tuproqlarning biologik aktivligi va ularning ifloslanish natijasida o'zgarishini;
- antropogen omillar ta'sirida yer osti suvlarining ifloslanishini;
- global, regional, lokal ekologik muammolar va Sanoat rivojlanishining iqlim o'zgarishlariga ta'sirini;
- o'simliklarga qo'yiladigan talablarni;
- o'simlik fitonsidlarini;
- tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini;
- tabiiy resurslar tasniflari, nazorat turlarini;
- resurslardan foydalanish ko'lami, metodlarini;
- tabiatga antropogen ta'sir va uning oqibatlarini;
- energetika resurslari, gidroelektrostansiya (GES) turlari, gidroenergetikaning shakllanishini;
- galvanik elementlar energiyasini elektr energiyasiga aylantirish qurilmalarini;
- tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning texnik shakllarini;
- O'zbekistonning energiyani tejashga va muqobil energiyadan foydalanishga qaratilgan davlat siyosatini ***bilishi*** kerak.

**Tinglovchi:**

- 2022- 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
  - multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
  - masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish;
  - Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
  - raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash;
  - OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
  - jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
  - universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
  - tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;
  - Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;

- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘silqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalgalash;
- sanoat zonalari monitoringini olib borish;
- sanoat zonalaridagi ekologik holatni tahlil etish;
- o‘simliklarga qo‘yiladigan ekologik talablarga rioya etish;
- tabiiy muhitga urbanizasiya jarayonining ta‘sirini tahlil etish;
- tiklanadigan energiya manbalaridan oqilona foydalanishning hozirgi zamondagi muammolarini yechimini topish;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti va tabiiy resurslardan foydalanish;
- geotermal energiyadan foydalanish asoslarini o‘zlashtirish;
- Muqobil energetikaning xalqaro rivojlanish tajribasidan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
  - Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligining ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta‘lim standartlari, ta‘lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
  - o‘quv yuklamalarni rejalshtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
  - meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
  - an‘anaviy va raqamli ta‘limda pedagogik dizaynnning xususiyatlarini ochib berish;
  - onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
    - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
    - pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish;

- raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
  - professor-o‘qituvchilarining tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
  - innovatsion ta‘lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
  - pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
    - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
    - o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarining ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
    - tinglovchilarining kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
    - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
    - ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarining salohiyati va o‘quv-metodik ta‘minot)ni tahlil etish va baholash;
    - talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
    - talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
      - sanoatlashgan shaharlar havosining tarkibini o‘rganish;
      - sanoat korxonalarining suv va tuproqlarga ta‘sirini tahlil etish;
      - suv zaxiralarini himoya qilish va ulardan foydalanish;
      - oqar suvlarda suv sifatini na‘zorat qilish;
      - shamol energetikasi va undan foydalanish asoslarini o‘zlashtirish;
      - tabiatga antropogen ta‘sir va uning oqibatlarini tahlil etish;
      - O‘zbekiston respublikasida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning umumiyligi muammolarini yechimini topish;
      - Kimyoviy elementlar energiyasidan foydalanish asoslarini o‘zlashtirish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

### **Tinglovchi:**

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma‘naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta‘minlash;
- raqamli ta‘lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta‘lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- raqamli ta‘lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarini amaliyatga tatbiq etish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyatga tadbiq etish;
- “Amaliyotchi professorlar” (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyatga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘silarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta‘limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- sanoatlashgan xududlarning atmosfera havosiga ta‘sirini o‘rganish;
- sanoatlashgan maydon tuproqlari holatini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning samarali ko‘rsatkichlarini baholash;
- ekologik loyiha va dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni hayotga tatbiq etish;

- biologik yoqilg‘ilar va ularning klassifikasiyasini o‘zlashtirish;
- tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishda jahon tajribasini qo‘llash; Atrof muhit muhofazasida muqobil energetikaning ahamiyatini ochib berish;
- tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning imkoniyatlari va rivojlantirish choralarini tahlil etigsh va qo‘llash ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

### Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o‘quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan mustaqil malaka oshirish shakllari asosida, 144 soati to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan kurs tinglovchilariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

### Molul bo‘yicha soatlar taqsimoti

| №  | Modul mavzulari   | Auditoriya uquv yuklamasi |          |                   |                     |
|----|---|---------------------------|----------|-------------------|---------------------|
|    |   | Jami                      | jumladan |                   |                     |
|    |   |                           | Nazariy  | Amaiay mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘uloti |
| 1. | Atrof muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish ta’limi va tarbiyasi                                       | 4                         | 2        | 2                 |                     |
| 2. | Uzluksiz ta’lim-tarbiyada atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanishning ekologik-iqtisodiy jihatlari | 4                         | 2        | 2                 |                     |
| 3. | Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning samarali mezonlari  | 10                        | 2        | 2                 | 6                   |
| 4. | Global, regional, lokal ekologik muammolar; iqlim o‘zgarishlariga moslashish                              | 10                        | 2        | 2                 | 6                   |
|    | <b>Jami:</b>  | <b>28</b>                 | <b>8</b> | <b>8</b>          | <b>12</b>           |

## **1-mavzu: Atrof muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish ta'limi va tarbiyasi**

Reja:

1. Inson mehnati faolitining tabiatga ta'siri omillari va shakllari
2. Insoniyatning tabiatga ta'sir doirasining kengayib borishi va uning muhofazasi
3. Barqaror rivojlanish ta'limi va tarbiyasi

Atrof-muhitni hozirgi zamon ekologik muhofazasi bosqichi, insonning tabiatga ta'siri umumsayyoraviy mashtabga yetgan. XX asr o'rtalaridan boshlangan bu bosqichning asosiy vazifasi ekologik tizimlarni muhofaza qilish, ularning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini ta'minlash va biosferadagi muvozanatni saqlashdir. Bunda tabiatdan oqilona foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyati va tabiat bir butundir. Jamiyat rivojlangan sari insonning tabiatga ta'siri ortib boradi. Tabiiy omillar bilan antropogen omillar o'zaro uyg'unlashib tabiiy landshaftlarning o'rniga antropogen landshaftlar vujudga keladi. O'zgartirilgan tabiiy muhit, landshaftlarga inson aralashib turmasa, ular o'z tabiiy holatiga qaytishga moyil bo'ladi. Insonning tabiatdan foydalanishi zaruriy ehtiyoj, inson tabiatdan qancha ko'p foydalansa, tabiatda shuncha ko'p o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga qator misollar keltirish mumkin.

Tabiatning bir butunligi tabiiy boyliklardan kompleks foydalanish zaruriyati bilan bog'liq. Chunki, tabiat unsurlari (iqlim, yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar) tabiatning ajralmas tarkibiy qismlaridir. Tabiiy resurslarning har biri kompleks foydalanishni talab etadi. Masalan: daryodan elektr energiyasi manbai, turli baliq, suv qushlari va boshqa hayvonlarning makoni, qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish manbai, transport vositasi, chuchuk suv manbai, rekreatsiya - turizm obyekti va boshqa sohalarda foydalanish mumkin.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda har xil katta-kichik hududlar, hatto kichik joyning mahalliy sharoiti, tabiiy boyligining holati hisobga olinadi va bu bilan regionallikka amal qilinadi.

Tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, geologiya, fizika, astronomiya, matematika, kimyo va boshqalar) ekologiya, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bevosita bog'liqdir. Bunga qator misollar keltirish mumkin. Masalan: tabiiy muhit qator tabiiy fanlarning ilmiy tadqiqot predmeti hisoblanadi. Barcha ilmiy va ilmiy-texnologik ishlab chiqarishlar tabiiy fanlarning ilmiy, amaliy xulosalariga tayanishi kerak.

Tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish va uni muhofaza qilish faqatgina tabiiy fanlarining o'r ganadigan obyekti bo'libgina qolmasdan, balki ijtimoiy fanlarning ham o'r ganadigan obyekti hisoblanadi. Uning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, tabobat, yuridik, madaniy, tarbiyaviy va boshqa qirralari bir butun majmua jarayon bo'lib, aniq ifodalangan fanlararo xarakterga ega.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda juda ko'p, xilma-xil omillar mavjud: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy, sog'lomlashtirish-gigiyena, yuridik, estetik, ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy va boshqalar. Yuqorida jihatlarini o'nlab fanlar va ularning tarmoqlari o'r ganadi.

Hozirgi vaqtida tabiiy boyliklarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli, har bir yoshda ijtimoiy ongni shakllantirish va taraqqiy ettirish kerak. Ijtimoiy ong shakllari xilma-xilligi, obyektiv olamning - tabiat va jamiyatning boyligi, serqirraligi va turli-tumanligidan kelib chiqadi. “Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” kursi ishlab chiqarishning geografik joylashishi. uning turli davlatlar va hududlarda rivojlanish sharoiti va xususiyatlarini o‘rganadigan ijtimoiy-iqtisodiy geografiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan joyning tabiiy boyliklariga xo‘jalik nuqgai nazaridan baho berish ham kiradi. Chunki, tabiiy sharoit xo‘jalikka, mehnat unumdarligiga, aholi va aholi joylarining tarqalish xususiyatlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, soha tadqiqotlarida hududning tabiiy boyliklarini iqtisodiy baholash katta ahamiyatga ega.

“Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” kursi “Iqtisodiy nazariya”, “Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish”, “Milliy iqtisodiyot”, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Statistika” va boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzbek bog‘likdir. Masalan: ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishda jumladan, ayrim davlat yoki hududlarda sanoat, qishloq xo‘jaligi, transportning taqsimlanishida tabiiy sharoit va resurslarning aholining soni, tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar, o‘z navbatida, tabiiy boyliklardan foydalanishga, ijtimoiy mehnat unumdarligiga, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti mehnat vositalarining takomillashishiga, o‘z navbatida tabiiy muhitga ishlab chiqarish ta’sirining kuchayishiga va uning ifloslanishiga olib keladi. “Demografik portlash”, ya’ni yer yuzi aholisi sonining keskin oshishi ham tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatmokda. Antropogen ta’sir global ekologik tizim biosferaning faoliyatiga ham jiddiy ta’sir yetkazib, umumsayyoraviy ekologik halokat xavfini keltirib chiqarmoqda.

Tabiatni muhofaza qilishning ilmiy, iqtisodiy, sog‘lomlashtirish, tarbiyaviy, estetik maqsadlari adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Insoniyatning tabiatga, turli bosqichdagi tabiiy majmualarga turlicha ta’siri yuqori darajaga ko‘tarilgan bugungi kunda, ekologik muvozanat buzilishining oldini olish muammosi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Ekologik vaziyatni o‘rganish, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ekologik vaziyatni o‘rganish tabiiy muhit holatini kuzatish va to‘g‘ri boshqarish, ya’ni monitoringni tashkil qilishga bog‘liq. Monitoring ba’zi obyekt yoki hodisalarini kuzatishni, ya’ni tabiiy muhitdagi antropogen o‘zgarishlarni kuzatishni, baholashni hamda bashorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda xalq xo‘jaligining turli sohalarida, tuman, shahar, viloyatlarning tabiiy muhitga ta’sirini nazorat qilish uchun ekologik pasportlashtirish amalga oshirilmoqda. Ekologik pasport barcha chiqindilar manbalari to‘g‘risida va ularning ta’sir darajasi haqida ma’lumot beradi.

Tabiatdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topdi. Davlat tashkilotlarining bu sohadagi faoliyati ham Konstitutsiyada belgilandi. Har bir davlatda tabiat muhofazasi bo‘yicha alohida qonun qabul qilinadi. Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan


qonunlarni buzgan shaxslar ma'muriy, moddiy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ekologiya va madaniyat tushunchalari uzviy bog'langan. Aholining madaniy saviyasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha joyda ekologik sharoit shunchalik toza, yashash muhiti qulay bo'ladi. Har bir mutaxassis, qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qati nazar aholining umumiy ekologik madaniyati saviyasini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shishi kerak. Bu borada yuksak ekologik madaniyatni o'z ichiga olgan milliy madaniy kadriyatlar, urf-odatlarni tiklash ham muhim ahamiyatga ega.

Insonning tabiatga ta'sir etishi odam paydo bo'lgan davrlardan boshlangan. Lekin kishilik jamiyatni rivojlanishining ilk davri - ibtidoiy jamoa davrida odamlar asosan ovchilik va baliq tutish bilan kun kechirganlarida, ularning hayot faoliyati tabiiy sharoit va resurslar bilan, ayniqsa, chambarchas bog'liq edi. Insonning tabiatga bo'lgan ta'siri esa, asosan yirik hayvonlar sonining kamayishida aks etgan. Binobarin, ibtidoiy bosqichda inson faoliyatida tabiat ta'siri ustunlik qilgan. Insonning tabiatga ko'rsatadigan ta'siri esa uncha sezilarli emas edi. Biroq, insonning tabiatga yetkazadigan salbiy ta'sir doirasi tobora kengaya borgan: yirik hayvonlar ovlanaverib kamayib ketgan, o'rmonlar yong'inlar natijasida zarar ko'rgan va hokazo. Demak, o'sha vaqtdayoq ekologik inqiroz namunalari kuzatila boshlangan, ovlanadigan yirik hayvonlar tugay boshlagach, ibtidoiy odam kun kechirishning yangi shakllariga, chunonchi, dehqonchilik bilan chorvachilikka o'tishga majbur bo'lgan.

Chorvachilik va ayniqsa, dehqonchilikning paydo bo'lishi hamda rivojiana borishi bilan insonning tabiatga ko'rsatadigan ta'siri yanada kuchaydi. Chorva mollarining yaylovlarda muttasil boqilishi, o'simlik qoplaming qisqarishiga va yovvoyi hayvonlarning yashab turgan joyidan siqib chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Dehqonchilikning boshlanishi, ya'ni yerlarni haydash, o'rmonlarni kesish va yondirish, qurg'oqchil rayonlarda dastlabki irrigatsion sistemalarni barpo etish odamlar yashaydigan joylardagi landshaftlarning xarakterini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada katta-katta maydonlarda tabiatning qiyofasi o'zgarib, hayvonlar sonining kamayishidan tashqari, daryo suvlarining kamayishi, tuproq erroziyasining rivojlanishi va boshqa salbiy hodisalar ham kuzatila boshladи. Ba'zi bir qimmatli hayvon turlari butunlay qirilib ketdi.


Birmuncha so'nggi davrlarda ibtidoiy davrdagiga nisbatan mahsulot ko'proq ishlab chiqarila boshlandi, natijada odamlar mehnat faoliyatining tabiatga salbiy ta'siri keng miqyosda yoyildi. Chunonchi, O'rta Yer dengizining asosiy o'rmonlari o'sha davrdayoq yo'q qilingan ekan. Shuningdek, Yevroosiyoning kattagina qismi o'zlashtirildi va ishlab chiqarishga yangi tabiiy resurslar: juda katta yaylov va o'rmon boyliklari, ko'plab foydali qazilma (temir va qumush) konlari jalb etildi.



### **Dunyo o‘rmon resurslarining qit’alar bo‘yicha taqsimlanishi**

Ayni paytda, ishlab chiqarishning moddiy asosini tashkil qiluvchi dehqonchilik kengayib, o‘rmon massivlarining qisqarishi davom etdi. O‘rmonlardan ochilgan yerlarni ekin maydonlari va yaylovlar tobora keng egallay boshladi. Ayni vaqgda, ko‘plab hasharotlar va kemiruvchilar yashashi uchun yangi, qulay ekologik sharoit vujudga keldi. Binobarin, ular tobora ko‘payib, qishloq xo‘jalik zararkunandalariga aylandilar. Shu bilan birga tabiiy landshaftlarning o‘zgarishi, o‘rmonlarning kamayishi, yalang yerlarning orta borishi hisobiga hayvonot dunyosida ham o‘zgarish ro‘y berdi.

Fan-tehnika inqilobi va texnikaning rivojlanishi davrida, tabiiy resurslar va ishlab chiqarish vositalaridan xususiy mulk egalarining maksimal daromad olishga intilishi tabiatning barcha boyliklaridan intensiv va ayni vaqtda vahshiyona foydalananishga olib keldi. XVIII-XIX asrlarda sanoat taraqqiyoti tufayli ko‘plab tabiiy resurslar: yer osti boyliklaridan, qishloq xo‘jalik yerlaridan, baliq zaxiralaridan, suv va quruqlik hayvonlaridan, o‘simlik dunyosidan kengroq foydalana boshlandi, o‘rmonlar maydoni keskin qisqardi.



### Dunyo o‘rmon resurslariga nisbatan MDH davlatlarining ulushi

Xullas, nisbatan qisqa vaqtida sayyoraviy masshtabda tuproq eroziysi kuchaydi, vayron qiluvchi suv toshqinlari avj oldi, daryolar sayozlashdi va chuchuk suv tanqisligi muammosi vujudga keldi. Landshaftlarning tubdan o‘zgarishi va intensiv ov qilish hayvon resurslariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘plab qimmatbaho fauna va flora turlari yo‘q bo‘lib ketdi yoki ular soni keskin kamaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida kimyo sanoatining rivojlanishi, temir yo‘llar qurilishi, dengiz va daryolarda kemalarning paydo bo‘lishi, ayniqsa, foydaly qazilmalardan tobora ko‘proq foydalanish kengaydi. Masalan, dunyo bo‘yicha cho‘yan eritish 1860-y. 4,2 mln. tonnadan 1900-y. 38 mln. tonnagacha ko‘tarildi. Bu vaqtga kelib, sanoatda va xo‘jalikning boshqa sohalarida ichki yonuv dvigatellaridan keng foydalaniishi munosabati bilan texnika taraqqiyotida katta o‘zgarish yuz berdi. Ishlab chiqarishda yangi murakkab mashinalarni va mehnat qurollarini joriy qilish, shaharlar va sanoat markazlarining ko‘payishi, ishlatiladigan yoqilg‘i miqdorining keskin o‘sishiga olib keldiki, bu hol foydalanimaydigan chiqindilarning, tashlandiqlarning, shlaklarning, chang, qurum va tutunlarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Bularning hammasi atrof tabiiy muhitning sezilarli o‘zgarishiga va ifloslanishiga olib kelmoqda. Tashqi muhit ifloslanishining bu qadar oshib borishiga qaramay, tabiatdagi muvozanatni saqlash masalasiga yetarli ahamiyat berilmayapti: buning ustiga sanoat korxonalarining chiqindilari, tashlandiqlari, shaharlardan to‘plangan axlatlar toza suv havzalariga, asosan daryolarga tashlanmoqda. Shunday bo‘lsada, tabiatning o‘zini-o‘zi tozalash va tiklanadigan biologik resurslarni takror barpo etish imkoniyati hali ham saqlanib qolmoqda.

Inson xo‘jalik faoliyatining tabiatdagi salbiy oqibatlari yer yuzining turli rayonlarida bir xil emas. Dastlab, bunday zararli ta’sirga industriyallashtirish va urbanizatsiya yo‘liga tushgan G‘arb mamlakatlari (Britaniya Birlashgan Qirolligi, Fransiya, Belgiya, Gollandiya va boshqalar) duch keldilar.

Shunday qilib, ishlab chiqarishning yuqoridagi bosqichlari tabiatdan samarali foydalanish imkoniyatini so‘ndira bordi va geografik muhitdagi tiklanmaydigan

salbiy o'zgarishlar endi mahalliy emas, balki mintaqaviy miqyosga aylandi, ya'ni katta-katta maydonlarni yoppasiga qamrab oldi. Biroq, tabiat o'zining uzoq evolyutsiyasi davomida izdan chiqqan tabiiy jarayonlarni va muvozanatni tiklash imkoniyatiga hali ham ega.

Sanoatning rivojlanishi tabiiy resurslarning kamaya borishidan tashqari, yangi muammoni — atrof-muhitning ifloslanishi muammolini keltirib chiqardi. Suv havzalari, atmosfera havosi, tuproqlar sanoat chiqindilari bilan kuchli ifloslanib borayotganligi ma'lum. Bular bugungi kunda o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, odamlar sog'lig'iga ham kuchli xavf bo'lib qoldi. Mazkur salbiy omil asta-sekin butun yer yuzini o'z ta'siri ostiga ola boshladi. Buning asosiy sababi shunda ediki, agar, insonning xo'jalik faoliyati XX asr boshlariga qadar loakal va regional xarakterga ega bo'lsa, endilikda sayyoraviy, ya'ni global masshtabga aylanib ketdi. Bu hol XX asrning 40-50-yillaridan boshlab aniqroq ko'rina boshladi. Shu vaqtga kelib, yer yuzining biron-bir burchagida insonning u yoki bu darajada tabiatga ta'siri bo'limgan joy qolmadi. Hatto, Antarktidaning qo'ltekkizilmagandek ko'ringan tabiatida ham radioaktiv changlar va DST pestitsidi borligi, yoqilg'i mahsulotlari va boshqa sun'iy birikmalar mavjudligi qayd qilindi.

Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, turli tabiat resurslarining regional tanqisligi atrof-muhitning esa, global masshtabda ifloslanishi va muvozanatining buzilishi ro'y berib, u tobora keskin tus ola bordi. Geografik muhitda energetika balansining va ekologik sharoitning buzilishi uchun real xavf paydo bo'ldi; bu esa kishilik jamiyatining kelajakdagi hayoti va faoliyatini murakkablashtirib yuboradi. Yer sharida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi paydo bo'lgunga qadar, atigi bir necha o'n million odam yashagan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining vujudga kelishi jahon aholisi sonining taxminan 500 millionga yaqin bo'lishiga olib keldi. Sanoat inqilobi tufayli esa aholi soni keskin ortib, 3,5 mlrd ga yetdi.

Fan-texnika inqilobi va tibbiyotdagi katta yutuqlar sababli "demografik portlash" vujudga keldi. Lekin, hozirgi vaqtga kelib, aholi sonining yillik o'sish sur'atlari ancha kamaydi va 2004-yilda 1,3% ga teng bo'ldi. 1974-yilda Yer sharining aholisi har minutda 150 kishiga yoki boshqacha qilib aytganda, sutkasiga 216 ming kishiga ko'paygan. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, jahon aholisining soni 1990-yilda 5438 mln. kishiga, 2000-yilda 6030 mln. kishiga, 2007-yilda esa 6290 mln. kishiga teng bo'ldi. 2012-yilning oxirida esa dunyo aholisi soni 7 mlrd.dan oshdi.

Ekologik ta'lim o'z ichiga inson yashayotgan hayot muhitini uni tarixiy nuqtayi nazardan saqlab qolish muammolari, shuningdek insonni mehnat faoliyati natijasida tabiiy muhitga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlari uning oldini olish masalalarini qamrab oladi. Ekologiya hozirgi davrda tabiat, jamiyat, inson o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar haqidagi fan hisoblanib, u ayni vaqtda kompleks fan sifatida tabiiy va ijtimoiy fanlarni ma'lumotlarini birlashtiradi.

Ekologiyaning mazmuni turli tuman murakkab o'zaro munosa-batlar haqidagi bilimlar, ya'ni ekologik - biologik, ekologik-biosferaviy, ijtimoiy - iqtisodiy bilimlardan iborat. Bular uning asosiy ta'lim mazmunini tashkil etib, boshlang'ich ta'limdan boshlab, o'rta maxsus ta'lim bosqichlarining dasturlaridan o'rin olgan

hamda o‘quvchilarning ekologik dunyoqarash bilimlari, qadriyatlarini shakllantirishda muhim o‘rinni egallaydi.

Ekologik ta’lim tarbiya va uning bosqichlari. Ekologik ta’lim o‘sib kelayotgan yosh avlodni, umuman yer yuzi aholisini barqaror rivojlanishiga o‘tishda eng muhim shart - sharoitlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ekologik ta’limning mazmunini quyidagilar tashkil etishi mumkin:

1. Dunyoni hozirgi ekologik holat asosida unga munosabat bildirish.
2. Tabiatda barcha jonsiz va jonli tarkibini birlikda ekanligini fikrlay olish.
3. Atrof-muhitga munosabat va o‘zini anglab yetish. Tabiatni tarkibiy qismi ekanligini tushunish.
4. Tabiatga nisbatan qadriyatlarni hurmat qilish.
5. Tirik organizmlarni har xil darajada o‘rganish va izchillik metodini qo‘llash.
6. Tirik organizmlar tizimi bir butunligini va o‘zaro ekologik bog‘lanishlarda ekanligi (moddalar aylanishi, energiya va axborot almashinuvlari).
7. Tabiiy jarayonlar va hodisalarning antropotsentrikdan biotsentrikga, hamda politsentrik usulni qo‘llash.
8. Tabiat va jamiyatdagi o‘zaro birlik va qarama-qarshiliklarni anglash.
9. Ekologik tanglik, madaniyatning tangligi ekanligini anglash.
10. Ekologik madaniyat insonning umumiy madaniyatining tarkibiy kismi ekanligini anglash.
11. O‘z faoliyatida ekologik va ahloqiy normalarni- to‘g‘ri keladigan usullarini anglash.
12. O‘zi va boshqalar sog‘ligi uchun, atrof-muhit holatiga nisbatan ekologik javobgarlikni tarbiyalash.
13. Insoniyatning barqaror rivojlanish konsepsiyasini, tabiat bilan jamiyatning koevolyutsiyasi ekanligini tushunib yetish.
14. Tabiat bilan jamiyatni uyg‘unlashtirish, ijtimoiy zaruriy muammo ekanligini tushunish.

Ekologik tarbiyani farzand tug‘ilgan kundan boshlamoq vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, ahloqimizni go‘zallashtirmoq, zehnimizni ravshanlanmoq demakdir. Ekologik tarbiyani kim va qanday olib boradi? - degan savol paydo bo‘ladi.

*Birinchi* - tarbiya ota-onas zimmasidadir.

*Ikkinci* -bog‘cha, maktab, oliy va o‘rta maxsus kasb hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlari va mahallalarda amalga oshadi.

Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit kishilarning faoliyati katta o‘rin tutadi va bu sohada oila, maktab sharoiti ham katta e’tiborga molikdir.

Ekologik tarbiya ham tarbiyaning, asosiy qismi bo‘lib, bolaning ahloqiga, hulq-atvoriga kuchli ta’sir qiladi va ota-onalarni ularni murg‘aklikdan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi. Ekologik ta’lim-tarbiya va umumiy tarbiya bir-biri bilan bog‘liq bir butun jarayondir.

Har qanday tarbiya asosan oila sharoitida kechadi. O‘zbek oilalarida "harom-halol", "uvol", "gunoh-savob" kabi tushunchalar ko‘proq ekologik vaziyat (masalan: nonning oyoq ostiga tushushini, suvning iflos qilinishi, jonivorlarga shavqatsiz munosabatda bo‘lish, dov-daraxtlari sindirish va boshqalar) yuzaga kelganda

qo‘llaniladi. Bolalar hali bu so‘zlarning mohiyatini to‘liq tushunmasalarda, ularga milliy ekologik xulq-atvor kurtaklari shakllanadi.

Insonni tabiat bilan uyg‘unlikka da’vat hadislarda ham o‘z aksini topgan.

Xalqimiz qadimdan badanning quvvati ovqat, aqlning quvvati-hikmatli so‘zdir deb uqtirib kelgan. Hadislar ana shunday xikmatli so‘zlar, donishmandlik durdonalari hisoblanadi. Hadis ilmi bilan shug‘ullangan mashhur allomalar Abu Abdulloh, Muhaammad ibn Ismoil Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abu ar-Rahmon ad Daramiy as-Samarhandiyilar O‘rta Osiyolik bo‘lib, hadis ilmining asrdan-asrga saqlanib borishiga munosib hissa qo‘shgan buyuk tarixiy shaxslardir.

Hadis bandlari ekologik ta’lim va tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Ularda ayrim o‘simplik va hayvonlarning xosiyatlari, ozuqa zanjirida tutgan o‘rni, shuningdek, inson xo‘jalik faoliyatida ahamiyati kabi tomonlari bayon etilgandir. Hadislarning ayrim bandlari insonni tabiat boyliklarini tejab-tergash va uni muhofaza qilishga o‘rgatadi. Chunonchi, qo‘y boq, zero ayni barakadur deyiladi. Bu yerda foydali hayvonlarning populyatsiyasini ko‘paytirish va unda turli maqsadlarda foydalanish mumkinligi e’tiborga olingan.

Shuningdek, boshqa hadislarda ham qo‘y, tuya va otlarning insonlarga tegadigan nafi va ularni boqib ko‘paytirish kishilar uchun faqat yaxshilik keltirishi haqida, ozuqa zanjirida II va III tartiblarni egallagan o‘laksaxo‘r hayvonlar go‘shti harom ekanligi, ovchilar uchun ko‘z oldida otilgan hayvoni yeyish mumkinligi, aksincha o‘lgan oldagisini yeyish inson salomatligiga salbiy ta’sir etishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Hadislardan namunalar.

Qo‘y boq, zero ayni barakadur.

Dehqonchilik bilan shug‘ullaninglar. Dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo‘riqchilarni ko‘paytiringlar.

Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do‘zoxga tashlanadi.

Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o‘tkazsa, so‘ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekkanidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi.

Kim suv toshqinini to‘xtatsa yoki yong‘inni o‘chirsa unga shahidlik ajri beriladi.

Maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida, sanoat ishlab chiqarish korxonalarida, shuningdek, jamoa xo‘jaliklarida, Madaniyat uylarida, qiroatxonalarda tabiatsevarlar klubi, yoshlar ma’ruzaxonasi, tabiatni muhofaza qilish jamiyatları, o‘lka muzeylari, tabiat burchaklari tashkil etilib, ularda o‘lkaning tabiatini, boyliklarini ko‘rsatadigan, hikoya etadigan tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiat muhofazasi talqin etiladigan kechalar tashkil qilinib, ularda o‘qituvchilar, olimlar bilan yoshlarning muloqatini o‘tkazish ham xayrli tadbirlardan hisoblanadi.

Oliy maktablarda ekologik ta’limi tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslari chuqur va har tomonlama o‘rganishga, inson faoliyati natijasida biosferada ro‘y berayoggan hodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil qilish maqsadlariga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, u talabalarni maktablarda ekologiya asoslari va tabiat muhofazasi ta’limini o‘qitishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ta’sirini izohlang.
2. Sanoat ishlab chiqarishining intensivlashuvi agrof muhitga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Fan-texnika inqilobi resurslarni o‘zlashtirish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
4. Intensivlashuv jarayonining qishloq xo‘jaligiga ta’sirini izohlang.
5. Mintaqa iqtisodiyotiga xos qaysi tarmoq atrof-muhitga ko‘proq zarar yetkazadi?
6. “Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” fani nimani o‘rganadi?
7. “Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” fanining o‘rganish obyektlarini ayting.
8. “Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
9. Tabiatdan betartib foydalanish oqibatida kelib chiquvchi muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqida mulohazalariningizni ayting.
10. “Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish” fanining ta’rifini keltiring va bo‘limlariga tavsif bering.

## **2-mavzu: Uzluksiz ta’lim-tarbiyada atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanishning ekologik-iqtisodiy jihatlari**

Reja:

1. Uzluksiz ta’lim-tarbiyada ekologik masalalar
2. Ekologik ta’limning asosiy talablari
3. Barqaror rivojlanishning ekologik-iqtisodiy jihatlari

Ekologik ta’lim o‘sib kelayotgan yosh avlodni, umuman yer yuzi aholisini barqaror rivojlanishiga o‘tishda eng muhim shart - sharoitlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ekologik ta’limning mazmunini quyidagilar tashkil etishi mumkin:

1. Dunyoni hozirgi ekologik holat asosida unga munosabat bildirish.
2. Tabiatda barcha jonsiz va jonli tarkibini birlikda ekanligini fikrlay olish.
3. Atrof-muhitga munosabat va o‘zini anglab yetish. Tabiatni tarkibiy qismi ekanligini tushunish.
4. Tabiatga nisbatan qadriyatlarni hurmat qilish.
5. Tirik organizmlarni har xil darajada o‘rganish va izchillik metodini qo‘llash.
6. Tirik organizmlar tizimi bir butunligini va o‘zaro ekologik bog‘lanishlarda ekanligi (moddalar aylanishi, energiya va axborot almashinuvlari).
7. Tabiiy jarayonlar va hodisalarining antropotsentrikdan biotsentrikga, hamda politsentrik usulni qo‘llash.
8. Tabiat va jamiyatdagi o‘zaro birlik va qarama-qarshiliklarni anglash.
9. Ekologik tanglik, madaniyatning tangligi ekanligini anglash.

10. Ekologik madaniyat insonning umumiy madaniyatining tarkibiy kismi ekanligini anglash.

11. O‘z faoliyatida ekologik va ahloqiy normalarni- to‘g‘ri keladigan usullarini anglash.

12. O‘zi va boshqalar sog‘ligi uchun, atrof-muhit holatiga nisbatan ekologik javobgarlikni tarbiyalash.

13. Insoniyatning barqaror rivojlanish konsepsiyasini, tabiat bilan jamiyatning koevolvutsiyasi ekanligini tushunib yetish.

14. Tabiat bilan jamiyatni uyg‘unlashtirish, ijtimoiy zaruriy muammo ekanligini tushunish.

Ekologik tarbiyani farzand tug‘ilgan kundan boshlamoq vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, ahloqimizni go‘zallashtirmoq, zehnimizni ravshanlanmoq demakdir. Ekologik tarbiyani kim va qanday olib boradi? - degan savol paydo bo‘ladi.

*Birinchi* - tarbiya ota-onas zimmasidadir.

*Ikkinci* - bog‘cha, maktab, oliy va o‘rta maxsus kasb hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlari va mahallalarda amalga oshadi.

Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit kishilarning faoliyati katta o‘rin tutadi va bu sohada oila, maktab sharoiti ham katta e’tiborga molikdir.

Ekologik tarbiya ham tarbiyaning, asosiy qismi bo‘lib, bolaning ahloqiga, hulq-atvoriga kuchli ta’sir qiladi va ota-onalarni ularni murg‘aklikdan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi. Ekologik ta’lim-tarbiya va umumiy tarbiya bir-biri bilan bog‘liq bir butun jarayondir.

Har qanday tarbiya asosan oila sharoitida kechadi. O‘zbek oilalarida "harom-halol", "uvol", "gunoh-savob" kabi tushunchalar ko‘proq ekologik vaziyat (masalan: nonning oyoq ostiga tushushini, suvning iflos qilinishi, jonivorlarga shavqatsiz munosabatda bo‘lish, dov-daraxtlari sindirish va boshqalar) yuzaga kelganda qo‘llaniladi. Bolalar hali bu so‘zlarning mohiyatini to‘liq tushunmasalarda, ularga milliy ekologik xulq-atvor kurtaklari shakllanadi.

Insonni tabiat bilan uyg‘unlikka da’vat hadislarda ham o‘z aksini topgan.

Xalqimiz qadimdan badanning quvvati ovqat, aqlning quvvati-hikmatli so‘zdir deb uqtirib kelgan. Hadislар ana shunday xikmatli so‘zlar, donishmandlik durdonalari hisoblanadi. Hadis ilmi bilan shug‘ullangan mashhur allomalar Abu Abdulloh, Muhaammad ibn Ismoil Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abu ar-Rahmon ad Daramiy as-Samarhandiyilar O‘rta Osiyolik bo‘lib, hadis ilmining asrdan-asrga saqlanib borishiga hissa qo‘shgan buyuk tarixiy shaxslardir.

Hadis bandlari ekologik ta’lim va tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Ularda ayrim o‘simplik va hayvonlarning xosiyatlari, ozuqa zanjirida tutgan o‘rnii, shuningdek, inson xo‘jalik faoliyatida ahamiyati kabi tomonlari bayon etilgandir. Hadislarning ayrim bandlari insonni tabiat boyliklarini tejab-tergash va uni muhofaza qilishga o‘rgatadi. Chunonchi, qo‘y boq, zero ayni barakadur deyiladi. Bu yerda foydali hayvonlarning populyatsiyasini ko‘paytirish va unda turli maqsadlarda foydalananish mumkinligi e’tiborga olingan.

Shuningdek, boshqa hadislarda ham qo'y, tuya va otlarning insonlarga tegadigan nafi va ularni boqib ko'paytirish kishilar uchun faqat yaxshilik keltirishi haqida, ozuqa zanjirida II va III tartiblarni egallagan o'laksaxo'r hayvonlar go'shti harom ekanligi, ovchilar uchun ko'z oldida otilgan hayvонни yeish mumkinligi, aksincha o'lган oldagisini yeish inson salomatligiga salbiy ta'sir etishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Hadislardan namunalar.

Qo'y boq, zero ayni barakadur.

Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar. Dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar.

Kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do'zoxga tashlanadi.

Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o'tkazsa, so'ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekkanidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi.

Kim suv toshqinini to'xtatsa yoki yong'inni o'chirsa unga shahidlik ajri beriladi.

Maktablarda, oliy o'quv yurtlarida, sanoat ishlab chiqarish korxonalarida, shuningdek, jamoa xo'jaliklarida, Madaniyat uylarida, qiroatxonalarda tabiatsevarlar klubi, yoshlar ma'ruzaxonasi, tabiatni muhofaza qilish jamiyatları, o'lka muzeylari, tabiat burchaklari tashkil etilib, ularda o'lkaning tabiatni, boyliklarini ko'rsatadigan, hikoya etadigan tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Tabiat muhofazasi talqin etiladigan kechalar tashkil qilinib, ularda o'qituvchilar, olimlar bilan yoshlarning muloqatini o'tkazish ham xayrli tadbirlardan hisoblanadi.

Oliy maktablarda ekologik ta'limi tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslari chuqur va har tomonlama o'rganishga, inson faoliyati natijasida biosferada ro'y berayoggan hodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil qilish maqsadlariga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, u talabalarni maktablarda ekologiya asoslari va tabiat muhofazasi ta'limini o'qitishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

O'rta umumta'lim maktablari va kasb - hunar kollejlari o'quvchilari uchun ekologik ta'limning asosiy talablari:

1. Tabiatning bir butunligi haqidagi izchil bilimlarni egallah. Tabiat qonunlari va hodisalari, tabiat, inson va jamiyatning o'zaro bog'lanishlarini, ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'zlashtirish.

2. Eng muhim ahloqiy - estetik va etik ahamiyatga ega bo'lган tabiatga nisbatan tarbiyalangan bo'lishi, o'quvchi o'z faoliyatida ekologik maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirish, tabiiy atrof muhitni tiklash va muhofaza qilishda faol harakat olib borish. Shaxs sifatida tabiatga va odamlarga nisbatan mehr - muruvvatli munosabatda bo'lish.

3. Ekologik vaziyatlarni o'zgarish sabablarini va ularning oqibatlarini tahlil qila olish. Ma'naviy turmushda kelib chiqadigan ekologik muammolarni hal etishda muqobil fikrlarni topa olish.

II.Ekologik ta'limning maqsadi.

1. Tabiat bilan inson tizimida ularning o'zaro aloqa munosabatlari. Inson tabiatning mahsuli ekanligi va uning ustidan hukmronlik qilmasligi.

2. Tabiatning tarkibiy qismi sifatida hissiy, javobgarlik, tabiatga nisbatan muhabbat, tejamkorlik va insonga nisbatan ekologik qadriyatlar tizimini shakllantirish.

3. Tabiat va insonning jismonan va ruhan salomatligini muhofaza qilishga, hamda saqlashga qaratilgan faoliyatini, qayta tiklash kabilarni shakllantirish. "Global darajada fikr qil", "Mahalliy darajada faoliyat ko'rsat" - degan zaylda ish yuritish.

### III.Ekologik ta'larning vazifalari.

1. Shaxsda adekvat ekologik tasavvurlarni shakllantirish.

Shaxsning eng muhim ekologik tafsifi tabiat olamiga psixologik kirib borish xisoblanib, bu ekologik psixopedagogika nuqtayi nazaridan shaxsda mavjud ekologik tasavvurlar tizimi darajasi bilan bog'liq.

2. Shaxsning tabiatga subyektiv munosabatini shakllanishi.

Tabiatga subyektiv munosabatning xususiyati shundan iboratki, tabiatga munosabatning jadalligi, anglashning darajasi kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

3. Tabiiy obyektlar bilan munosabatdagi adekvat strategiyalar va aniq texnologiyalarni shakllantirish.

Ekologik psixopedagogika nuqtayi nazaridan shaxsning amaliy faoliyatida, tabiiy obyektlar bilan mavjud strategiyalar va texnologiyalarni o'zlashtirish orqali shakllanadi.

### IY. Ekologik ta'limganining o'rta maxsus va kasb - xunar kollejlari

O'quv rejasidagi o'rni.

Kasb - hunar kollejlarida "Issiqxonali xo'jaliklarni tashkil qilish va yuritish" yo'nalishida "Ekoliya va tabiatni muxofaza qilish" fanidan 40 soat ma'ruza, amaliy mashg'ulot 40 soat. "Bog'dorchilik - istirohat bog'lari qurilishi" yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasida "Tabiatni muxofaza qilish" fanining dasturida ma'ruza 40 soatni, amaliy mashg'ulot 20 soatni tashkil etadi. Ekoliya va tabiatni muhofaza qilish fani jami 80 soat hajmda dars ajratilgan bo'lib, umumiy ekologiyaning autekoliya, populyatsiyalar ekoliyasi, biotsenozlar, biogeotsenozlar va ekotizimlar, biosfera haqidagi ta'lilot, maxsus (mintaqaviy) ekoliya, O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish kabi bo'limlarni qamrab olgan.

Ekoliya va tabiatni muhofaza qilish dasturida tabiat, jonsiz va jonli tabiat, ekologik omillar va ularni tirik organizmlarga ta'sir etishi, hamda tabiiy resurslar va ularni muhofaza qilish, shuningdek, ularni kelgusi avlodlarga yetkazish masalalarini hal etishga yo'naltirilgan.

Tabiatni muhofaza qilish fani dasturi mazmuni asosan O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish, maxsus muhofazaga olingan hududlar, davlat va nodavlat tashkilotlari olib borayotgan tabiatni muhofaza qilish bo'yicha amaliy ishlar haqida ma'lumot berishga yo'naltirilgan.

Makroiqtisodiy siyosat mamlakatda tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhit ahvoliga keng qamrovli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan milliy siyosat, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligiga bog'liq bo'limgan holda aholi daromadi, davlat daromadlari va xarajatlari, innovatsion siyosat va boshqalar orqali atrof-muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy siyosat tadbirlari ikki vaqt gorizonlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlari talabni boshqarish siyosati orqali makroiqtisodiy muvozanatni jadal tarzda tiklashga yo‘naltiriladi. U o‘z ichiga fiskal, monetar va boshqa ko‘plab dastaklarni olishi mumkin.

Tarkibiy islohotlar dasturlari uzoq maqsadlarni ko‘zlagan holda - tashqi savdo va ichki narxlar siyosatini liberallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratiladi.

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni tartiblashda qisqa muddatli, o‘rtalik va uzoq muddatli maqsadlar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun qisqa va o‘rtalik muddatli maqsadlar o‘rtasidagi ziddiyatlar bartaraf etilishi zarur.

Shuningdek, ekologik siyosatning samaradorligi tabiiy islohotlarni amalga oshirishdagi xatolar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pgina ekologik muammolarni hal qilish uchun mamlakatlarda rivojlangan bozor infrastrukturasi mavjud bo‘lishi kerak.

Ba’zi bir hodisalarda davlat institutlari ham atrof muhitni muhofaza qilish tadbirlari samarasini pasaytirishi mumkin. Lekin atrof-muhitga makroiqtisodiy siyosatning ta’siri to‘g‘risida aniq bir javob berish qiyin. U ko‘pgina o‘ziga xos omillar bilan bog‘liq davlat boshqaruvi tarkibi, xarakteri, bozor institutlari, atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati kabi omillar shular jumlasiga kiradi.

Makroiqtisodiyotni qisqa muddatli barqarorlashtirish dasturlari yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, yalpi talabni tez o‘zgartirishga qaratilgan. Iqtisodiy tartiblashning bir qancha asosiy sohalarini ajratib ko‘rsatish mumkin: jamoat sektori xarajatlarini qisqartirish, soliqqa tortishdagi o‘zgarishlar, kreditlash stavkasining o‘zgarishi, ayriboshlash kursining devalvatsiyasi kabilalar shular jumlasidandir.

1. Jamoat sektori xarajatlarini qisqartirish. (JSXQ) ning asosiy sabablaridan biri, davlat byudjeta yoki tashqi savdo taqchilligini pasaytirishdan iborat.

2. Soliq siyosati. Soliq va subsidiyalar resurslarning nisbiy narxlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ular, shuningdek, davlatning tabiatni muhofaza qilish loyihamonini moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan mablag‘lar real hajmiga ta’sir ko‘rsatadi.

3. Kredit-pul (monetar) siyosati. Kreditlash stavkasi monetar siyosatning asosiy dastagi hisoblanadi, uning samarali foiz stavkasini oshirish natijasida iste’mol va xususiy investitsiyalarning qisqarishi orqali yalpi talab kamaytiriladi.

4. Ayriboshlash kursi siyosati. Monetar va fiskal dastaklar talabini kamaytirishga karatilgan bo‘lib, har doim ham davlat byudjeti va to‘lov balansi muvaffaqiyatga olib kelavermaydi. Buning uchun milliy mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshirish uchun qo‘srimcha dastak kerak bo‘ladi. Davlat byudjetining balansi ichki balans, to‘lov balansi esa tashqi balans ham deb yuritiladi. Tashqi va ichki balanslarni boshqarish esa turli xil dastaklardan foydalanishni taqozo etadi. Ayriboshlash kursi siyosatini shular jumlasiga kiritish mumkin. Lekin bu juda murakkab vazifa bo‘lib, rivojlangan davlatlarda ham juda qiyin amalga oshadi.

5. Tarmoq siyosati. Tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi va ularni amalga oshirish jarayoni davlatning makroiqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Uzbekistan yuqori iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy salohiyatga ega. Bu o’lka qadimgi sivilizatsiya va madaniyat markazi bo‘lib, tabiiy iqlimi shart-sharoitlari nihoyatda qulay.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida boy mineral xom ashylari muhim o‘rin tutadi. Oltin zaxirasiga ko‘ra, respublika hamdo‘stlik mamlakatlari ichida ikkinchi o‘rinni; qumush, mis, qo‘rg‘oshin va volfram zaxirasi bo‘yicha uchinchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, gaz, ko‘mir, neft va boshqa xom ashyo zaxiralari ham sanoat uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, respublika tabiiy tola ishlab chiqarishda, meva-sabzavot yetishtirish va eksport qilishda yetakchi maqomga ega. Mamlakatda paxta terish mashinalari qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqariladi. Respublikaning mustaqillikka erishishi yangi ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Jumladan, yengil avtomobillar, avtobuslar, maishiy xizmat texnikalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakat qishloq xo‘jaligining sug‘oriladigan dehqonchilikka asoslanganligi sababli respublika suv xo‘jaligi juda murakkab muhandislik tizimiga ega. Kanallarning umumiyligi uzunligi 171 ming km. 53ta katta-kichik suv omborlarining umumiyligi suv sig‘imi 16 mlrd. kub. m.

Chorvachilik qo‘ychilikka yo‘naltirilgan va go‘sht-sut chorvachiligi, parrandachilik va baliqchilik rivojlangan. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishiga suv resurslarining chegaralanganligi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda juda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Respublika aholisi Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalarga nisbatan ancha ko‘p. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jon boshiga iste’mol qilinishi lozim bo‘lgan fiziologik me’yor yig‘indisidan ancha kam. Bundan tashqari, yaqin o‘tmishdagi sug‘oriladigan hududlarning ko‘payishi va o‘z vaqtida tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining qo‘llanilmaganligi ekologik muammolarning ortib borishiga olib keldi. “Orol fojeasi”ni xuddi shunday muammolar qatoriga kiritish mumkin.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Ekologik ta’lim tarbiyaga va shaxsga nisbatan qanday talablar qo‘yadi?
2. Ekologik ta’limning maqsadi nimalardan iborat?
3. Ekologik ta’limning vazifalarini sanab o‘ting.
4. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish dasturi mazmuni nimalardan iborat?
5. Tabiatni muhofaza qilish dasturi, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish dasturidan nima bilan farq qiladi?
6. Kasb - hunar kollejlarining o‘quv rejasidagi Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish va Tabiatni muhofaza qilish dasturlariga necha soatdan ajratilgan?
7. Ekologik ta’lim nimani o‘rganadi?
8. Ekologik ta’lim oldida qanday vazifalar turibdi?
9. Ekologik ta’lim barkamol shaxsni tarbiyalashda qanday rol o‘ynaydi?
10. Ekologik ta’lim va tarbiyaning mazmuni nimalardan iborat?
11. Uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiyaning bosqichlarini sanab bering.

### **3-mavzu: Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning samarali mezonlari**

Reja:

1. Tabiiy resurslar va ularning tasnifi
2. Tabiiy resurslarning inson ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati
3. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mezonlari

Tabiiy resurslar — insonlarning yashash vositasi bo‘lib, inson ularni tabiatdan oladi va ularsiz ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshira olmaydi. Tabiiy resurslar insonga oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoqilg‘i va energetika xom ashylari berishi sababli, yashash va ishlab chiqarish faoliyatining zaruriy shartidir. Tabiiy resurslarning turi juda xilma-xil bo‘lib, ular ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasining tarkibiy qismidir. Tabiiy resurslar kompleksi mineral resurslar, iqlim, suv, yer-tuproq, o‘simplik, hayvon resurslari, shuningdek, atom resurslari va planetar hamda kosmik resurslarni o‘z ichiga oladi. Tabiiy resurslar ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Tabiiy resurslar tushunchasini ta’riflashdan oldin, bu tushunchaning ko‘pchilik mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinishini aytib o‘tish kerak. Akademik I.P.Gerasimov bilan professor D.L.Armandlar tabiiy resurslarga, bizning nazarimizda, eng to‘liq ta’rif bergenlar: “tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo‘lgan xilma-xil vositalardir”. Yu.G.Saushkin elektr energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xom ashynoni tabiiy resurslarga kiritadi. Yirik olim A.A.Mins tabiiy resurslarni foydalanish shakkiali va yo‘nalishlariga qarab, iqtisodiy jihatdan klassifikatsiyalashni, ya’ni tasnif qilishni ilgari suradi. Bu tasnifga ko‘ra tabiiy resurslar moddiy ishlab chiqarishning asosiy sektorlarida va ishlab chiqarishdan tashqarida foydalanishiga qarab guruhlarga ajratiladi. Ya’ni unga ko‘ra tabiiy resurslar:

A. Moddiy ishlab chiqarish resurslari: sanoatda yoqilg‘i, metallar, suvlar, yog‘och-taxta, baliq; qishloq xo‘jaligida - suv (sug‘orish uchun), ovlanadigan hayvonlar;

B. Ishlab chiqarishdan tashqari soha resurslari: ichimlik suvi, daraxtzorlar, kishilarni davolash uchun iqlim resurslari va hokazo.

Tabiiy resurslar kishilarning yashashi uchun zarur bo‘lgan shunday vositalarki, bu vositalar jamiyatga bevosita emas, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish vositalari orqali ta’sir etadi. Tabiiy resurslar insonning ta’sir etish xarakteriga qarab, ikki turga bo‘linadi: tugaydigan va tugamaydigan resurslar.

Tugaydigan resurslar, o‘z navbatida, qaytadan tiklanmaydigan va qaytadan tiklanadigan resurslarga bo‘linadi. Qaytadan tiklanmaydigan tabiiy resurslarga yer osti boyliklari (neft, toshko‘mir, rudalar va boshqalar) kiradi. Bu resurslardan muttasil foydalanish bora-bora ular zaxirasining butunlay tugab qolishiga olib keladi. Chunki, ular tabiiy yo‘l bilan qayta tiklanmaydi yoki tiklansada (nazariy jihatdan millionlab yillardan keyin, ya’ni kelgusi geologik davrlarda), foydalanishga nisbatan bir necha million marta sekinlik bilan tiklanadi. Tiklanadigan tabiiy resurslarga - tuproqlar, o‘simpliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, ko‘llar va dengiz tagiga cho‘kadigan ba’zi bir mineral tuzlar kiradi. Bu resurslar foydalanish

davomida tiklanadi. Lekin ular tiklana olishi uchun ma'lum tabiiy sharoit kerak. Bu sharoitni buzish resurslarning qayta tiklanish jarayonini sekinlashtiradi yoki butunlay to'xtatadi. Binobarin, tiklanadigan tabiiy resurslardan foydalanishda bularni hisobga olish lozim.

Turli resurslar turlicha tezlikda tiklanadi. Masalan, ovlangan hayvonlarning tiklanishi uchun bir yoki bir necha yil, kesib olingan o'rmonlar uchun - kamida oltmis yil, tuproqning chirindi qavatining bir santimetri hosil bo'lishi uchun esa 300-600-yil talab qilinadi. Shunday ekan, tabiiy resurslarni sarflash sur'ati ularning tiklanish darajasiga muvofiq kelishi kerak. Bu muvofiqlikning buzilishi resurslarning tugab ketishiga, o'rmonlar maydonining qisqarib borishiga, ovlanadigan hayvonlar zaxirasining kamayishiga, tuproqlar hosildorligining pasayishiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib borishi muqarrar.

Tiklanadigan ba'zi tabiiy resurslar inson ta'siri ostida tiklanmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Bunga butunlay yo'q qilib yuborilgan hayvon va o'simlik turlari, eroziya natijasida batamom buzilib ketgan tuproqlar va boshqalar misol bo'la oladi.

Masalan, Ispaniyadagi kesib yuborilgan o'rmonlar hanuz qayta tiklanmadni, natijada, bir vaqtlardagi bepoyon o'rmonlar landshafti bora-bora chala cho'llarga aylandi. Butunlay qirib yuborilgan ko'plab hayvon turlari endi qaytadan paydo bo'lmaydi, ya'ni tiklanmaydi.


Shunday qilib, tabiiy resurslarning tiklanish yoki tiklanmasligi ko'p jihatdan insonning ularga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Tiklanmaydigan tabiiy resurslarni muhofaza qilishning asosiy yo'llari - ulardan rejali va ilmiy asosda ratsional foydalanish va takror barpo bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Tiklanadigan tabiiy resurslarni muhofaza qilishda eng muhim ularning tiklanishiga doimiy imkoniyat yaratishdir, mana shundagina bu resurslar insonga amalda cheksiz xizmat qilishi mumkin. Tugamaydigan resurslarga - suv, iqlim va kosmik resurslar kiradi.

**Suv resurslari.** Yer sharida suv uch holatda (suyuq, qattiq, bug' holatida) bo'lib, uning umumiy zaxirasi bitmas-tuganmasdir. Lekin insonning xilma-xil xo'jalik faoliyati tufayli, chuchuk suvning miqdori va sifati Yer sharining turli joylarida har xildir. Daryo va ko'llarning sayozlanishi, shuningdek, ko'pgina rayonlarda suvning ifloslanishi natijasida, chuchuk suvning yetishmasligi, allaqachon keskin tus olgan. Shuning uchun chuchuk suvlarning sarflanishi va tozaligi ustidan nazorat o'rnatish nihoyatda zarur tadbirdir. Dunyo okeanining suvi amalda bitmas-tuganmas hisoblanadi, ammo suvning neft mahsulotlari va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishi natijasida, unda yashovchi suv hayvonlari va o'simliklarning yashash sharoiti tobora yomonlashib bormoqda. Binobarin, suvning sifatini, ko'p rayonlarda esa miqdorini ham jiddiy muhofaza qilishga zarurat tug'ilmoqda.

**Iqlim resurslari** — atmosfera havosi, shamol energiyasi va yog'inlardan iborat bo'lib, bitmas-tuganmasdir. Biroq atmosferaning tarkibi va u bilan bog'liq bo'lgan sifati mexanik aralashmalar, sanoat va transport gazlari hamda radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi natijasida keskin o'zgarishi mumkin. Havo tozaligi uchun kurash resursni muhofaza qilishning eng muhim vazifalaridan biridir.



**Dunyo miqyosida chuchuk suv resurslarining qit’alar bo‘yicha taqsimlanishi**

**Kosmik resurslarga** quyosh radiatsiyasi hamda dengiz suvlarining ko‘tarilish va pasayishi (qalqishi) energiyasi kirib, ular ham amalda bitmas-tuganmasdir. Lekin, ular insonning faol xo‘jalik faoliyati ta’siri ostida o‘zgarishi mumkin. Masalan, katta sanoat shaharlarida atmosfera tarkibining o‘zgarishi, ya’ni ifloslanishi, quyosh radiatsiyasi miqdoriga ta’sir qiladi. Chunonchi, atmosfera tarkibida karbonat angidrid gazining orta borishi radiatsiya miqdorining proporsional ravishda ortishiga sabab bo‘ladi. Demak, atmosfera havosini muhofaza qilish, avvalo, uning tozaligi uchun kurash demakdir.

Tabiat va uning boyliklari inson uchun nihoyatda xilma-xil: iqtisodiy, sog‘lomlashtiruvchi, tarbiyaviy, estetik va ilmiy ahamiyatga ega. Shunga muvofiq, tabiatni muhofaza qilish muammosi quyidagi asosiy jihatlarga bo‘linadi:

1. Iqtisodiy jihat. Tabiatning moddiy ishlab chikarishdagi ahamiyati aniq va ravshandir. Tabiat va mehnat — insonga kerak bo‘lgan moddiy farovonlikning bosh manbalaridir. Inson iste’mol qiladigan har qanday mahsulot o‘simliklar yoki hayvonlar, tuproq unumдорligi, foydali qazilmalar, havo va suv, quyosh radiatsiyasi yoki yer ostining issiqqliklari evaziga hosil qilinadi.


2. Ilmiy jihat. Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, avvalo, tabiat qonunlarini tadqiq qilish va ularga qagiy amal qilishni taqozo etadi. Bunda tabiatning bir butunligi, doimiy o‘zgarishda va rivojlanishda ekanligi, landshaftlarning ma’lum darajada o‘zini-o‘zi tiklash imkoniyati mavjudligi, ularning zonal-regional tarqalish va boshqa qonuniyatlarini chuqur tushunib yetish tabiatdan to‘g‘ri foydalanishdagi asosiy shartdir.

3. Sog‘lomlashtirish-gigiyenik jihat. Tabiatning sog‘lomlashtiruvchi ahamiyati har bir kishiga ma’lum. Sof havo, toza, musaffo suvdan bahramand bo‘lish, o‘rmonda dam olish, dengizda cho‘milish, tog‘larga sayohat qilish va hokazolar inson sog‘ligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va davolashda keng foydalilanadi. Binobarin, havo, suv va yer qancha toza bo‘lsa, suv havzalari, o‘rmonlar, parklar, bog‘lar

qancha ko‘p bo‘lsa, aholining sog‘ligi uchun shuncha yaxshi sharoit yaratiladi. Biroq, keyingi vaqtarda yirik industrial rayonlarda atmosfera havosi, suvlar va tuproqlar ifloslanishining kuchayishi hamda tabiatning o‘zgarishi munosabati bilan aholining sog‘ligi uchun xavf vujudga kelayapti. Shuning uchun ham keyingi vaqtarda tabiatni muhofaza qilishning sog‘lomlashtirish-gigiyenik jihatiga, ya’ni qulay ekologik sharoit yaratish masalasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda.

4. Tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihat shundan iboratki, tabiat qo‘ynida bo‘lish kishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatib, uni xushfe’lroq, muloyimroq, oljanob qiladi, unda yaxshi hislar uyg‘otadi. Tabiatning yoshlarni yuksak estetik ruhda tarbiyalashdagi roli katta. Tabiat bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish yoshlar ongini har tomonlama rivojlantirib, ularda kuzatuvchanlikni o‘stiradi, xarakterining yaxshi tomonlarini shakllantiradi, yuksak vatanparvarlik hissiyotini va tabiatga nisbatan ehtiyyotlik bilan munosabatda bo‘lish istagini ro‘yobga chiqaradi. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy jihat juda muhim ahamiyatga ega.

5. Tabiatni muhofaza qilishning estetik jihat. Tabiat insonning ma’naviy boyligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tabiat kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida san’atning ilhomchisi, buyuk ijodning manbai bo‘lib kelgan. Yozuvchilar, rassomlar va bastakorlarning eng yaxshi asarlarida tabiatning go‘zal manzaralari tasvirlangan. Tabiat go‘zalligi ijodiy kayfiyat yaratadi, ijodkorga ko‘tarinki ruh beradi, odamda ijobiy his-hayajon uyg‘otadi, did, his va tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Tabiatni muhofaza qilishning bu barcha jihatlari ma’lum darajada shartli ravishda ajratilgan bo‘lib, aslida ko‘pincha ular o‘zaro chambarchas bog‘liqidir. Hozirgi kunda, ya’ni fantexnika taraqqiyoti davrida tabiatga va uning boyliklariga ta’sir ko‘rsatish tobora ortib bormoqda. Yerlardan maksimal foydalanish, yangi yerkarni o‘zlashtirish, yer osti boyliklarini qidirib topish va ularni ishga solish, suv, tuproq, o‘simplik, hayvon resurslaridan foydalanish ko‘lami kengaymokda. O‘z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga mo‘ljallay oladigan va tabiiy resurslardan o‘zi belgilagan maqsadi yo‘lida foydalanish imkoniga ega bo‘lgan jamiyatgina tabiatdan oqilona foydalana oladi, degan xulosa chiqadi.



**“Tabiiy muhit – ishlab chiqarish chiqindilari – tabiiy muhit” tizimi**

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro'y beradigan asosiy jarayonlarning rivojlanishi va o'zaro ta'siri qonuniyatları haqidagi bilim katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni hisobga olish, tabiatga ko'rsatilgan har qanday ta'sirning kelajakdag'i oqibatini bilish mumkin emas. Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammallasha borgan sari jadallahadi va uning samaradorligi oshib boradi.

Hozirgi zamon qurilish texnikasi, transporti, aloqa vositalari katta shaharlarda ilgarigi manzilgohlarga qaraganda yuzlab, minglab marta ko'p aholi joylashishiga, melioratsiya, cho'llarni serunum yerlarga aylantirishga, seleksiya va naslchilikni rivojlantirishga, hosildor ekin, mevalar, mahsuldor chorva mollarini yaratishga imkon beradi.

Sanoat rivojlanishi bilan atrof-muhitning ifloslanishi kuchaydi. Keyingi yillarda sintetik materiallar, ko'mir, neft, gazni qayta ishlab mahsulot chiqarish, kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqarish, avtomobil, suv va xavo transportining juda rivojlanib ketishi, buning ustiga bir qancha mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilishning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Ishlab chiqarishdan chiqarib tashlanadigan chiqindi, qishloq xo'jaligida o'g'it, gerbitsid va boshqalar agrof-muhitni zararladi.

Tabiiy boyliklarning ancha kamayib qolganligi va atrof-muhitning ifloslanayotganligi bir qancha mamlakat huqumatlarini tabiatni muhofoza qilish tadbirilarini ko'rishga majbur etdi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda o'rmon kesish tartibga solindi, daryolarda baliqni ko'paytirish boshlandi, ov hayvonlari ko'paytirilmokda, ovchilikda tartib o'rnatildi va muhofaza qilinadigan hududlar kengaytirilmoqda.

Hammamizga ma'lumki, fan-texnika taraqqiyotining asosi energetikadir. Odam tosh asrida endigina olovdan foydalangan davrda o'rtacha sutkasiga jon boshiga energiya iste'mol qilish 5 kkal. ga teng edi. O'rta asrda bu raqam 12 ming kkal. ga yetdi. Yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalanish esa, 26 ming kkal. gacha ortdi. Hozirgi vaqtida sanoati rivojlangan mamlakatlarda jon boshiga sarflanadigan energiya 200 ming kkal. dan oshib ketdi.

Yer yagona mehnat predmeti bo'lmay, balki umumiylar mehnat predmeti bo'lib, insoniyat uchun turli tabiiy mehnat predmetlarini ham beradi (o'rmondagi daraxt, foydali qazilmalar va boshqalar). Mehnat vositalari, avvalo ishlab chiqarish qurollari insonning tabiatga ta'sir etishida va moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan vositalardir.

Kengroq ma'noda aytganda, mehnat vositalariga ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan hamma moddiy sharoitlar kiradi (ishlab chiqarish binosi, shu bino joylashgan yer, aloqa vositalari va boshqa). Mehnat vositalaridan eng muhim - mashinalar, stanoklar, asbob-uskunalar va boshqalar. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga mehnat predmetlari, mehnat vositalari, geografik muhit, aholining zichligi va ortishi, inson ehtiyojining o'sishi, ilm-fan taraqqiyoti kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi zamonda fan ham bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib bormoqda.

Resurslarning tugab qolishi haqidagi xavotir yarim asr dunyo olisharini tashvishga solib keldi. Biroq, fan-texnika taraqqiyoti natijasida ma'lum bir resurs

o‘rnini boshqasi qoplashi, bu xavotirning vaqtinchalik ekanini isbotladi. Masalan, yog‘och o‘rnini plastmassalar, metall o‘rnini keramika buyumlari egallamoqda.

Ba’zan bir resursga ehtiyoj ba’zi davrlarda o‘sib borsa, vaqt o‘tishi bilan uning o‘rnini yana eskisi egallashi mumkin. Masalan, iste’moldagi energiya manbalarning 1913-yilda 80 foizi, 1950-yilda 50 foizi, 1990-yilda 27 foizini ko‘mir tashkil qilgan. 1960-yillarda neftning 1 barreli (159 litri) 1,8 AQSH dollariga baholangan bo‘lsa, 2005-yilda 1 barrel neftning yil davomidagi o‘rtacha bahosi 70 dollarga teng bo‘ldi. Bu davr oralig‘ida neft bahosi salkam 40-martaga oshdi.

Oxirgi 20 yil davomida ko‘mirning iste’moldagi ulushi asta-sekin ortmoqda. 1 kg neft yonganda 10,5 ming kkal. issiqlik ajratsa, 1kg toshko‘mir 7 ming kkal issiqlik ajratadi. Agar hozirgi kunda neftning ko‘mirga nisbatan tannarxi 2 hissa ortiq bo‘lsa, yaqin 10 yillar davomida ko‘mirning iste’moldagi ulushi ortishi kutiladi. Bu kabi misollarni boshqa resursslarni taqqoslaganda ham kuzatish mumkin. Masalan, o‘tgan asrning 60- yillariga qadar to‘qimachiliknshg asosiy xom ashyosi paxta yoki ipak tolesi edi. Keyingi yillarda kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida uning, ya’ni to‘qimachilik xom ashyosidagi iste’molning 50 foizi sun’iy tolalar hisobiga qotandi. Biroq paxta qayta tiklanadigan xom ashyo bo‘lganligi bois, sun’iy tolaga nisbatan tabiiy tola sifatida uning tannarxi doimo yuqori bo‘lib qolaveradi. Dunyo aholisining tabiiy tolaga ehtiyoji ham doimo yuqori bo‘ladi.

Makroiqtisodiy siyosat mamlakatda tabiiy resursslardan foydalanish va atrof-muhit ahvoliga keng qamrovli ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan milliy siyosat, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligiga bog‘liq bo‘lмаган holda aholi daromadi, davlat daromadlari va xarajatlari, innovatsion siyosat va boshqalar orqali atrof-muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy siyosat tadbirlari ikki vaqt gorizonlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlari talabni boshqarish siyosati orqali makroiqtisodiy muvozanatni jadal tarzda tiklashga yo‘naltiriladi. U o‘z ichiga fiskal, monetar va boshqa ko‘plab dastaklarni olishi mumkin.

Tarkibiy islohotlar dasturlari uzoq maqsadlarni ko‘zlagan holda - tashqi savdo va ichki narxlar siyosatini liberallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratiladi.

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni tartiblashda qisqa muddatli, o‘rta va uzoq muddatli maqsadlar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun qisqa va o‘rta muddatli maqsadlar o‘rtasidagi ziddiyatlar bartaraf etilishi zarur.

Shuningdek, ekologik siyosatning samaradorligi tabiiy islohotlarni amalga oshirishdagi xatolar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pgina ekologik muammolarni hal qilish uchun mamlakatlarda rivojlangan bozor infrastrukturasi mavjud bo‘lishi kerak.

Ba’zi bir hodisalarda davlat institutlari ham atrof muhitni muhofaza qilish tadbirlari samarasini pasaytirishi mumkin. Lekin atrof-muhitga makroiqtisodiy siyosatning ta’siri to‘g‘risida aniq bir javob berish qiyin. U ko‘pgina o‘ziga xos omillar bilan bog‘liq davlat boshqaruvi tarkibi, xarakteri, bozor institutlari, atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati kabi omillar shular jumlasiga kiradi.

Makroiqtisodiyotni qisqa muddatli barqarorlashtirish dasturlari yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yalpi talabni tez o'zgartirishga qaratilgan. Iqtisodiy tartiblashning bir qancha asosiy sohalarini ajratib ko'rsatish mumkin: jamoat sektori xarajatlarini qisqartirish, soliqqa tortishdagi o'zgarishlar, kreditlash stavkasining o'zgarishi, ayriboshlash kursining devalvatsiyasi kabilar shular jumlasidandir.

6. Jamoat sektori xarajatlarini qisqartirish. (JSXQ) ning asosiy sabablaridan biri, davlat byudjeta yoki tashqi savdo taqchilligini pasaytirishdan iborat.

7. Soliq siyosati. Soliq va subsidiyalar resurslarning nisbiy narxlariga ta'sir ko'rsatadi. Ular, shuningdek, davlatning tabiatni muhofaza qilish loyihamonini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan mablag'lar real hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

8. Kredit-pul (monetar) siyosati. Kreditlash stavkasi monetar siyosatning asosiy dastagi hisoblanadi, uning samarali foiz stavkasini oshirish natijasida iste'mol va xususiy investitsiyalarning qisqarishi orqali yalpi talab kamaytiriladi.

9. Ayriboshlash kursi siyosati. Monetar va fiskal dastaklar talabini kamaytirishga karatilgan bo'lib, har doim ham davlat byudjeti va to'lov balansi muvaffaqiyatga olib kelavermaydi. Buning uchun milliy mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirish uchun qo'shimcha dastak kerak bo'ladi. Davlat byudjetining balansi ichki balans, to'lov balansi esa tashqi balans ham deb yuritiladi. Tashqi va ichki balanslarni boshqarish esa turli xil dastaklardan foydalanishni taqozo etadi. Ayriboshlash kursi siyosatini shular jumlasiga kiritish mumkin. Lekin bu juda murakkab vazifa bo'lib, rivojlangan davlatlarda ham juda qiyin amalga oshadi.

10. Tarmoq siyosati. Tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va ularni amalga oshirish jarayoni davlatning makroiqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Uzbekistan yuqori iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy salohiyatga ega. Bu o'lka qadimgi sivilizatsiya va madaniyat markazi bo'lib, tabiiy iqlimi shart-sharoitlari nihoyatda qulay.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida boy mineral xom ashyolari muhim o'rinni tutadi. Oltin zaxirasiga ko'ra, respublika hamdo'stlik mamlakatlari ichida ikkinchi o'rinni; qumush, mis, qo'rg'oshin va volfram zaxirasi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, gaz, ko'mir, neft va boshqa xom ashyo zaxiralari ham sanoat uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, respublika tabiiy tola ishlab chiqarishda, meva-sabzavot yetishtirish va eksport qilishda yetakchi maqomga ega. Mamlakatda paxta terish mashinalari qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqariladi. Respublikaning mustaqillikka erishishi yangi ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishida muhim omil bo'ldi. Jumladan, yengil avtomobillar, avtobuslar, maishiy xizmat texnikalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mamlakat qishloq xo'jaligining sug'oriladigan dehqonchilikka asoslanganligi sababli respublika suv xo'jaligi juda murakkab muhandislik tizimiga ega. Kanallarning umumiyligi uzunligi 171 ming km. 53ta katta-kichik suv omborlarining umumiyligi suv sig'imi 16 mlrd. kub. m.

Chorvachilik qo'ychilikka yo'naltirilgan va go'sht-sut chorvachiligi, parrandachilik va baliqchilik rivojlangan. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishiga suv resurslarining chegaralanganligi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda juda

katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Respublika aholisi Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalarga nisbatan ancha ko‘p. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jon boshiga iste’mol qilinishi lozim bo‘lgan fiziologik me’yor yig‘indisidan ancha kam. Bundan tashqari, yaqin o‘tmishdagi sug‘oriladigan hududlarning ko‘payishi va o‘z vaqtida tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining qo‘llanilmaganligi ekologik muammolarning ortib borishiga olib keldi. “Orol fojeasi”ni xuddi shunday muammolar qatoriga kiritish mumkin.

Ekologik ekspertiza atrof-muhitni muhofaza qilish tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni baholash tamoyili dastlab 70-yillarda AQSHda ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarning tajribalarida qo‘llanilib kelinmokda. O‘zbekistonda ham bu tajriba o‘z o‘rnini topdi va rivojvana boshladi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat, davlat sanitariya-ekologiya va jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizalari amalga oshiriladi. Davlat ekologiya ekspertizasi xo‘jalik qarori qabul qilinishidan oldin o‘tkazilishi shart bo‘lgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish tadbiridir.

Davlat ekologiya ekspertizasini O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat qo‘mitalarining, viloyatlar va Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalarining ekspert organlari amalga oshiradi. Davlat ekologiya ekspertizasining maqsadi mo‘ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyati va o‘zga faoliyatning ekologik jihatdan kay darajada xavfli ekanligini aniqlash, bu xildagi faoliyat tabiatni muhofaza qilish qonunlarining talablariga qanchalik muvofiqligini baholash, loyihalarda nazarda tutilayotgan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining qay darajada yetarli va asosli ekanligini aniqlashdan iborat. Davlat ekologiya ekspertizasining obyektlari:

1. davlat dasturlari, konsepsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarini, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning asosiy sxemalarining loyihalari;
2. qurilishning barcha turlari uchun materiallar tanlash, reja oldi, loyiha oldi va loyiha hujjatlari;
3. xo‘jalik faoliyatini va ularni tabiiy resurslardan foydalanish me’yorlarini belgilab beruvchi yo‘riqnomalar-usul va me’yoriy-texnik hujjatlarning loyihalari;
4. yangi texnika, texnologiya, materiallar va moddalar yaratish hamda xorijdan sotib olish bo‘yicha loyiha hujjatlari, mahsulotlarga standartlar;
5. O‘zbekiston Respublikasiga keltirilayottan va undan olib ketilayotgan mahsulotlar;
6. kimyoviy moddalar;
7. alohida mintaqalar, hududlar va obyektlarning ekologik vaziyati;
8. atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatayottan korxonalar va boshqa obyektlar kiritiladi.

2003-yilda davlat ekologik ekspertizasi tizimida salkam 100 nafar xodim ishladi va o‘ta muhim muammolarni ekspertiza qilishda respublikaning 300 dan ortiq yirik olimlari ishtirok etdi. Natijada, ekspertiza qilinadigan obyektlarning salmog‘i tadrijiy ravishda ortib bordi.

Mazkur muammolarni hal etish maqsadida mustaqil ekspert kengashlari tashkil etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat ekologik ekspertizasi va uning sifatini baholash mezonlari” tasdiqlangan. Ekspertdan o‘tkazilgan obyektlar mazkur mezonlar asosida tanlab tekshirib turiladi.

Davlat sanitariya-ekologiya ekspertizasi atrof-muhit ifloslanishining aholi salomatligiga salbiy ta’siri darajasini aniqlash maqsadlarida tashkil etiladi. Davlat sanitariya-ekologik ekspertizasi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, uning qoshidagi Davlat sanitariya va epidemiologiya departamenti hamda joylardagi organlari, Tabiatni muhofaza kilish Davlat qo‘mitasi tashabbuslariga binoan tashkil etiladi.

Jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizasi esa mustaqil mutaxassislar tomonidan ijtimoiy birlashmalar, loyihalarning mualliflari va xo‘jalik faoliyati tashabbuskorlarining xohishiga ko‘ra amalga oshiriladi.

XX asr fan-texnika inqilobi bosqichida barcha mamlakatlar iqtisodiyotida, jumladan, sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi. Qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarishning kompleks rivojlanish xususiyatlari namoyon bo‘ldi. Masalan, bugungi kunda qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘itlarsiz tasavvur etish qiyin. Oxirgi yillarda dunyo miqyosida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish 500 mln. tonnaga yetdi va yetakchi mamlakatlar sifatida Xitoy, AQSH, Hindiston, Rossiya, Kanada, Germaniya, Indoneziyani qayd etish lozim.

Dunyo bo‘yicha ishlab chiqariladigan kaliyli o‘g‘itlarning 75 foizi va eksportining 70 foizi Xitoy, AQSH, Hindiston, Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi. XX asrning ikkinchi yarmida kimyo sanoati jadal sur’atlar bilan rivojlandi. Polimerlar ishlab chiqarishdagi 3 ta asosiy mintaqa — bu Sharqiy Osiyo, G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika bo‘lib, bu mintaqalar hissasiga plastmassa materiallarining 90 foizi sintetik kauchuklarning 80 foizi to‘g‘ri keladi. Mamlakatlar ichida AQSH, Germaniya va Yaponiya yetakchichik qiladi. Kimyoviy tolalarning esa 60 foizi Osiyoda ishlab chiqariladi. Kimyoviy tolalar dunyo to‘qimachilik sanoati xom ashvosining 50 foizini tashkil qiladi. Yuqori darajada rivojlangan AQSH va Yaponiya, Xitoy, Tayvan, Koreya Respublikasi, Hindiston, Indoneziya, Tailand, Turkiya, Meksika kabi mamlakatlar ichida yetakchilik maqomini saqlab qoladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Tabiiy resurslarga nimalar kiradi?
2. Iqlim resurslari ishlab chiqarishga qanday omil ta’sir ko‘rsatadi?
3. Tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslar tushunchalarini izohlang?
4. Tabiat muhofazasi tasnifiga oid qaysi nazariyalarni bilasiz?
5. Tabiatni muhofaza qilish jihatlarini sharhlab bering.
6. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro‘y beradigan asosiy jarayonlarning rivojlanishi nimalardan iborat
7. Makroiqtisodiy siyosat mamlakatda tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhit ahvoliga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
8. Makroiqtisodiyoti barqarorlashtirish dasturlarini sharhlang.
9. Ekologik ekspertizaning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
10. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish haqida nimalarni bilasiz?

11. Tiklanadigan tabiiy resurslardan kanday foydalanish maqsadga muvofiq?

#### **4-mavzu: Global, regional, lokal ekologik muammolar; iqlim o‘zgarishlariga moslashish.**

Reja:

1. Atmosfera xavosining global ifloslanish sabablari va oqibatlari
2. Tuproq sho‘rlanishi va uning oldini olish
3. Global iqlim o‘zgarishi oqibatlari
4. Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari

Atmosfera - yerning himoya qobig‘idir, chunki u tirik organizmlarni turli ultrabinafsha nurlar va kosmosdan tushadigan meteoritlarning zararli ta’siridan himoya qiladi. Atmosfera bo‘limganda edi, Yer yuzasida ham oydagagi kabi hayot bo‘lmas edi. Yer yuzasi kunduzi 100 gradus qiziganda, kechasi esa minus 100 gradus sovigan bo‘lar edi.

Quyosh va shamol energiyasi, atmosfera havosi va yog‘in-sochin iqlim resurslari bo‘lib, insoniyat jamiyatida katta ahamiyatga ega. Quyoshdan fazoga juda katta miqdorda issiqlik energiyasi tarqalib turadi. Yer yuzasining har bir kvadrat kilometr maydoniga 2,5mln. ot kuchiga teng energiya tushadi. Quyosh energiyasi atmosferaning yuqori qatlamlarida yutilib, yer yuzasiga juda oz miqdorda yetib keladi.

Insoniyat quyosh energiyasidan o‘z ehtiyoji uchun qadimdan foydalanib kelgan. Keyingi vaqtarda kuyosh energiyasidan AQSH, Yaponiya, Isroil, Fransiya kabi davlatlar yaxshigina foydalanmoqda. Turkmaniston, O‘zbekiston, Gruziya, Armaniston, Moldaviya, Ukraina kabi davlatlarning bir qator ilmiy-tadqiqot instituti arzon quyosh energiyasidan xalq xo‘jaligida foydalanish yo‘llarini topmoqdalar. Insoniyat qadimdan tugamaydigan resurslardan biri bo‘lgan shamol energiyasidan foydalanib kelgan. AQSH, Britaniya Birlashgan Qirolligi, Fransiya, Germaniya, Daniya davlatlarida turli quvvatlarga ega bo‘lgan kuchli shamol elektr stansiyalari qurilgan. O‘zbekiston shamol energiyasiga boy, ammo mamlakatda, bu arzon energiya turidan kam foydalanilmoqda.

Yerdagi hayotni havosiz tassavur etish qiyin, shuning uchun ham toza havo muammosi hozirgi kunda o‘ta dolzarb bo‘lib qoldi. Atmosfera havosi har doim aralashib turgani uchun, uning kimyoviy tarkibi sayyoramizning hamma joyida asosan bir xildir. Havo qobig‘i asosan azot (78,09%) - S<sub>2</sub>; kislorod (20,95%) - O<sub>2</sub> dan iborat bo‘lib, ular atmosfera gaz tarkibiniig 99% ini tashkil etadi, qolgani esa boshqa (argon (Ag) - 0,93%; karbonat angidrid (S0<sub>2</sub>) - 0,03%; neon, geliy, kripton, ksenon va boshqalar) gazlardir. Gazlarning biri ko‘payib, ikkinchisining kamayib ketishi tirik mavjudot hayotini muvozanatdan chiqarib yuboradi va halokatga olib borishi mumkin.

Atmosferadagi azot asosan Yerdagi mikroorganizmlar faoliyati natijasida yuzaga kelib, biologik jarayonlarda unchalik rol o‘ynamaydi. Yerdagi tog‘ jinslarida mujassamlashgan azot atmosferadagi azotga qaraganda, 50 baravar ko‘pdir.

Atmosferada erkin holatda uchraydigan kislorod yashil o'simliklar mahsuloti bo'lib, tirik organizmlarning ajralmas qismi va hayot manbai hisoblanadi. Inson hayoti uchun ko'p energiya kerak: ko'p energiya olish uchun esa kislorod zarur. Inson kuniga o'rta hisobda 9 kg havo bilan nafas oladi. Inson o'rtacha umr (75 yosh) davomida 700 ming kub metr havoni oladi.

Atmosferada ozon ( $O_3$ ) va suv bug'larining bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Atmosferadagi suv bulut va tumanlarda mayda tomchi va muz kristalchalari holida uchraydi. Suv bug'lari asosan 10 km gacha bo'lgan balandliklarda uchraydi. Atmosferaning quyi qismida uchraydigan karbonat angidrid ( $SO_2$ ) o'simliklarning fotosintez jarayonida faol qatnashadi. Karbonat angidrid vulqonlar otilishi, yoqilg'ilar yonishi, organik moddalarning chirishi va organizmlarning nafas olishi natijasida paydo bo'ladi.  $SO_2$  nisbatan og'ir bo'lib, chuqur yerlarda (eski quduq, shaxta va boshqa joylarda) uchraydi.

Atmosfera changlari havo qobig'inining ajralmas qismidir. Juda mayda zarrachalar organik va noorganik jarayonlar tuproq qatlaming yemirilishi (nurashi), vulqon hodisalari, o'rmon, dasht va torf yong'inlari, dengiz suvining bug'lanishi oqibatida paydo bo'lgandir. Atmosferada juda ko'p miqdorda kosmik changlar bo'lib, yer yuzasiga yiliga 2-5 mln. tonna kosmik chang tushadi. Atmosferadagi turli chang yadrolari Yer landshaft kobig'ini o'zgartirishda katta ahamiyatga egadir. Chunki gaz holidagi suv bug'lari yadro atrofiga yig'ilib, suv tomchilarini hosil etadi. Changlar quyosh radiatsiyasini yutish qobiliyatiga ega va yer yuzasini nurlanishdan saqlaydi. Atmosferadagi changlar yer yuzasining relyef xususiyati, tuzilishi va balandligiga qarab turli miqdorda uchraydi. Masalan, shahar ustidagi 1 kub sm. hajmdagi havo da 100 ming dona chang zarrasi bo'lsa, okean ustidagi 1 kub sm. hajmdagi havoda 100 dona chang zarrasi bo'ladi. Insonning xo'jalik faoliyati atmosfera tarkibini o'zgartirib yubormoqda: atmosferaniig quyi qismiga ko'plab qo'shilayotgan karbonat angidrid, is gazi, turli zaharli gazlar, radioaktiv moddalar va chang zarrachalari havo qobig'i tarkibini o'zgartirishga katta ta'sir ko'rsatmokda.

Atmosferaning ifloslanishi Yerning havo, qobig'iga ta'sir etibgina qolmasdan, balki inson hayoti va tevarak-atrofdagi muhitni xavf ostiga qo'yadi. Atmosfera havosidagi har xil gazlar, suv bug'lari, kattiq va suyuq zarrachalar, radioaktiv changlar havo sifatini buzadi, tabiiy muhitga turli salbiy oqibatlar olib keladi. Ilgarilari havo sanoat obyektlari ustidagina ifloslangan bo'lsa, hozir sanoat, transport, energetika va boshqalardan chiqqan chiqindi katta-katta rayonlar, bir necha minglab kilometr masofalardagi hududlar havosining ifloslanishiga sababchi bo'lmoqda. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida bir yilda havoga chiqarilgan oltingugurt gazi, is gazi (SO), kul va karbonat angidridning miqdori taxminan 1mlrd. tonnaga yetmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, insoniyat paydo bo'lgandan to shu vaqtgacha 90-110 mlrd. tonna turli yoqilg'i yoqilgan, shuning yarmi keyingi 25 yilga to'g'ri keladi. Faqatgina ko'mirning o'zi yiliga 5 mlrd. tonna yoqiladi. Albatta, yoqilg'ini yoqish uchun kislorod kerak. Hozirgi kunda yoqilg'ilarni yoqishga yiliga 20-25 mlrd tonna kislorod sarflanmoqda. Yiliga metall oksidlanishi uchun 100 mln. tonna kislorod ketadi. YUNESKOning ma'lumotiga ko'ra, turli mamlakatlarda ishlab

turgan salkam 300 mln. Avtomashinalar yiliga 1mlrd. kishi iste'mol qiladigan kislorodni sarflaydi. 1000 km. yurgan yengil avtomobil bir kishining bir yillik kislorodini yutadi.

Hozirgi vaqtida turli tashqi kuchlar ta'sirida biosfera sekin-asta o'zgarib bormoqda. Chunki inson faoliyati natijasida kundan-kunga ko'payib borayotgan is gazi (SO) ni o'simlik va okeandagi fitoplachktonlar yutib ulgura olmayotirlar. Atmosfera tarkibidagi kislorod muammozi ham dolzarb bo'lib, uning miqdori yildan-yilga kamayib bormoqda. Shuning uchun havoning ifloslanishi sabablarini aniqlash va uning oldini olish katta amaliy ahamiyatga ega.

J.Detri atmosferaning ifloslanish sabablarini to'rt guruhga bo'lishni taklif etadi.

1. Tabiiy yo'l bilan ifloslanish (mineral, o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar ta'sirida).

2. Sanoat tarmoqlari, transport va turar joylarni isitishda foydalaniladigan yoqilg'ilar orqali ifloslanish.

3. Sanoat chiqindilari orqali ifloslanish.

4. Sanoat chiqindilari va maishiy-xo'jalik chiqindilarini yoqish orqali ifloslanish.

Tabiiy yo'l bilan ifloslanish atmosfera tarkibida me'yordan ortiq katta halokatlar ro'y berishi oqibatida bo'lishi mumkin. Ammo transport, sanoat va boshqalarning chiqindilari tabiiy yo'l bilan ifloslanishga qaraganda anchagina xavflidir.

Texnik taraqqiyoti natijasida yonilg'i resurslari Yer va okeanning sayoz yerlaridan ko'plab olinmoqda va ishlatilmokda. Oqibatda turli yoqilg'i mahsulotlarining qoldiqlari havoga qo'shilib, uni buzmoqda (birgina benzin yonishi natijasida 60 kg is gazi (SO) havoga ko'tariladi va aralashadi).

Sanoat obyektlari va issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'inining to'liq yonmasligi oqibatida turli miqdorda zaharli gazlar havoga chiqib, ba'zilari esa yer yuzasiga tushganda, boshqalari atmosfera qatlamlarida uzoq vaqtgacha saqlanishi mumkin. Masalan, "Elektrisite de Frans" issiqlik elektrostansiyasi kompaniyasi har oyda 51 ming tonna ko'mir yoqishi oqibatida har kuni havoga 33 tonna sulfat angidrid gazi va 250 tonna kul chiqaradi.

Neft bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalarini havoga kul chiqarmaydi. Ammo ko'mir ishlataligining stansiyaga qaraganda, uch barobar ko'p sulfat angidrid gazi ajratib chiqaradi. Sanoat tarmoqlari havoga turli zaharli modda va gazlar chiqarishi bilan bir qatorda, atmosferadan juda katta miqdorda kislorod yutadi. Masalan, bir tonna cho'yanni rudadan ajratib olish uchun 150 kub metr, bir tonna po'lat olish uchun 35-70 kub metr, bir tonna ammiak olish uchun 500 kub metr va bir tonna atsetilen olish uchun 3600 kub metr kislorod ketadi.

Kishi sog'ligi uchun chang, qurum, kul va boshqalar zararlidir. Yonilg'i to'la yonmasligi, sifatining pastligi va tutunni tutib qoladigan uskunalarining sust ishlashi natijasida havodagi turli birikmalar sekin-asta yer yuzasiga tushadi. 1952-yili Londonda bir hafta davom etgan iflos tuman natijasida 4000 kishi, keyinchalik (3 oy mobaynida) yana bir necha ming kishi nobud bo'lган. 1962-yil dekabr oyida bu shaharda qurumdan 750 kishi o'lган. Cement zavodlari ham atmosferani ko'plab ifloslaydi. Cement changlari uzoq-uzoq joylargacha tarqalishi mumkin. Hozirgi

vaqtida zavodlarga chang zarrachalarini tutib qoladigan uskunalar o'rnatalib, millionlab tonna qimmatbaho qurilish materiallari tejab qolinmoqda.

Atmosfera va tabiiy muhitning ifloslanishida radioaktiv moddalarning ta'siri juda xavflidir. Radioaktiv moddalarning sun'iy ravishda Yer yuzasida tarqalishi asosan ikkinchi jahon urushidan keyin boshlandi. Atmosferada, suv osti va quruqlikda turli kuchga ega bo'lgan ko'plab atom, vodorod, neytron bombalari portlatib sinab ko'rildi. Oqibatda, atmosferaga radioaktiv moddalar tarqaldi. Birgina atom bombasini portlatish natijasida 200 dan ortiq turli radioaktiv moddalar paydo bo'ladi, ba'zilari esa radioaktiv zanjirlarini hosil etib, bir elementdan ikkinchisiga o'tadi.

Portlatish natijasida atmosferaga ko'tarilgan radioaktiv moddalarning yirik zarralari quruq chang holatida yoki yog'in-sochinga qo'shilib bir necha soat ichida yana yerga qaytib tushishi mumkin. Ularning radioaktiv ta'siri juda kuchli. Juda mayda radioaktiv moddalar esa atmosferaning yuqori qatlamlarigacha ko'tarilib, bir necha minglab kilometr masofani ifloslashi mumkin. Hozirgi vaqtida bunday zaharli moddalarni baland tog'larda, Antarktida muzliklarida ham uchratish mumkin.

Shunday qilib, atmosferaning ifloslanishi xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Jumladan:

- a) atmosferaning ifloslanishi tufayli materiallar yemiriladi va korroziyaga uchraydi;
- b) shaharlarda, ayniqsa, sanoatlashgan joylardagi iflos havo korxona asbob-uskunalarining foydalanish muddatini 1,5 barobar kamaytiradi;
- v) atmosferaning ifloslanishi natijasida ko'pgina kasalliklar paydo bo'lmoqda (kishilar jismoniy va ruhiy kasalliklarga uchramokda);
- g) havo ifloslanishi qishloq xo'jalik maydonlariga katta zarar ko'rsatmoqda;
- d) havo ifloslanishidan achchiq tutundan transportlarning harakati qiyinlashib, ko'p halokatlar (samolyot hapokati) ro'y bermokda;
- ye) atmosferaning ifloslanishi yarim o'tkazgichlar, aniq asboblar ishlab chiqarishni qiyinlashtirib yubormoqda;
- j) eski texnologiyalardan foydalanish oqibatida zavod va fabrikalardan qimmatbaho moddalar bekorga atmosferaga chiqib ketmoqda;
- z) atmosferaning ifloslanishi natijasida geografik qobiqning tabiiy holatida o'zgarish yuz bermoqda.

Insonning xo'jalik faoliyati tufayli atmosfera havosi tarkibida gaz, chang, qurum, qattiq zarrachalar shaharlarda qishloqlarga nisbatan ko'p. Eramizning birinchi asridayoq Rim faylasufi Seneka yozadi: "Rimni achchiq, sassiq havosini tark etishim bilan o'zimda yengil ruhiy tetiklik his etaman". Haqiqatan ham, Yer yuzasining qayerida joylashmasin shahar havosi og'ir.

Keyingi vaqtida har tomonlama taraqqiyot jarayoni, insoniyat o'ziga turli qulayliklarni ta'minlash oqibatida atrofida tabiat noqulayliklarini keltirib chiqardi. Yer yuzida urbanizatsiya jarayoni juda tezlik bilan o'sib borishi oqibatida yangi-yangi shaharlar paydo bo'lmoqda. Dunyodagi shaharlarning umumiyl maydoni 0,5 mln. kv. km. ni, Yer kurrasi maydonining 0,3 % ni tashkil etadi. Dunyo aholisining 49 % aholisi 100 ming dan ortiq bo'lgan shaharlarda yashaydi. Shahar aholisi

Shimoliy Amerikada butun aholining 74 foizini, Yevropada 71 foizini, Britaniya Birlashgan Qirolligida 86 foizini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi egallagan maydon O‘rta Osiyoning 1/3 qismiga (Qozog‘iston kiritilmagan), butun aholisining 60 foizga va shahar aholisining 62 foizga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasi aholisining aksariyati qishloq joylarda istiqomat qiladiki, shahar aholisi 36 foizni tashkil etadi. Bu Rossiyaga nisbatan 40 foizga, Estoniyaga nisbatan 35 foizga kamdir.


Yer yuzida aholi zich joylashgan, sanoat va transporti rivojlangan yirik shaharlar ko‘p. Shahar, qishloq va suv havzalar havosidagi changlar yer yuzasining relyef xususiyati, tuzilishi, balandligi, hatto, uning geografik o‘rniga qarab turli miqdorda uchraydi. Keyingi 100-yil ichida dunyodagi yirik shaharlar havosi meteorologik stansiyalarda, teleminoralarda, baland uylar tomida kundalik kuzatishlar va suniy yo‘ldoshlardan olingan maxsus fotoaxborotlar asosida kuzatiladi. Ma’lum bo‘lishicha, katta shaharlarda havo harorati atrofga qaraganda, baland bo‘ladi, uning o‘ziga xos “issiqlik oroli” vujudga keladi.

Radiatsiya balansi shahar ustidagi ifloslangan havoda, shahar atrofiga qaraganda, ancha farq qiladi. Masalan, Markaziy Yevropaning bir qator shaharlarida quyosh radiatsiyasining shaharga tushishi, shahar atrofiga qaraganda, 29-36 foizga kam. Shahar havosi tarkibidagi har xil zaharli gazlar, ayniqsa, antropogen changlar transportlardan, sanoatdan, isitish inshoolaridan, qurilishlardan chiqadi. Shaharlarda havo aylanishining (sirkulyatsiya) sustligi tufayli diametri 4-10 mikronga teng changlar 1 km balandlikkacha ko‘tarilib, radiusi 10 km bo‘lgan maydonga tarqaladi. Diametri kattaroq (10 mikrondan katta) bo‘lgan changlar uncha yuqoriga ko‘tarilmay atrofga yoyilib, 300-500 m balandliklarda uchib yuradi va so‘ngra shaharga chang, qurum sifatida qaytib tushadi.

Shahar havosining ifloslanib, chang miqdorining ko‘payishi ultrabinafsha nurlarning o‘tishini kamaytiradi, bu esa havoda kasal tarqatuvchi bakteriyalarning ko‘payishiga sharoit yaratadi. Sanoatlashgan katta shaharlarda ba’zan shamol esmasligi, iflos havoning bir necha kun turib qolishi natijasida “smog”, ya’ni zaharli gaz va changlardan vujudga kelgan achchiq tuman paydo bo‘ladi.

Nam dengiz iqlimi mavjud bo‘lgan London shahri ustida iqlimning namligi tufayli atmosferadagi antropogen chang va gazlar kimyoviy reaksiyaga kirishib, o‘ta zaharlashadi va sarg‘ish achchiq tuman (smog) vujudga keladi. Kam bulutli, shamol kam, ochiq va quruq ob-havo hukm surgan Los-Anjeles shahrida achchiq yoki fotokimyoviy achchiq tuman hosil bo‘ladi. Chunki, havo ochiq va shamol kam bo‘lganligi sababli zaharli gaz, tutun va changlar quyosh nuri ta’sirida fotokimyoviy reaksiyaga kirishadi. O‘zbekiston

Respublikasining katta shaharlarida havoning tozaligi doimo kuzatib turiladi. Lekin shaharlar havosini toza saqlash ustidan nazorat inspeksiyalarining amalga oshirayotgan ishlariga qaramay, ba’zi korxonalarda tozalovchi inshootlarning yo‘qligi tufayli, atmosferaga chang, qurum va zaharli gazlarni chiqarib yuborish hollari ro‘y bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo‘mitasining ma’lumotlariga qaraganda, O‘zbekiston havosiga har yili statsionar va ko‘chma manbalardan 4 mln. tonna zaharli moddalar qo‘shilmoqda.



### **Kimyoviy moddalarning atrof-muhitda aylanib yurishi (N.N.Melnikov va boshqalar)**

Shundan yarmi uglerod oksidiga, 15 foizi karbonat angidridi, 14 foizi oltingugurt ikki oksidi, 9 foizi azot oksidi, 8 foizi qattiq moddalar, faqatgina 4 foizi o‘ziga xos zaharli murakkab birikmalarga to‘g‘ri keladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, havoga ko‘tarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning 67 foizi ko‘chma manbalarga mansub bo‘ladi, ammo qolgan o‘ta zaharli birikmalar 2 mingdan ortiq statsionar korxonalarnidir (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Muborak gazni kayta ishslash zavodi, Olmaliq va Farg‘ona, Andijon, Chirchiq, Navoiy, Qo‘qon, Muborak shaharlaridagi korxonalar shular jumlasidandir). Havoga ko‘tarilgan oltingugurt oksidi turli jarayonlar ta’sirida sulfat kislotasiga aylanib, yog‘ii bilan yer yuzasiga tushadi. Bunday jarayonni Olmaliqdan 50 kmuzoqda joylashgan biosfera qo‘riqxonasida kuzatish mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekistonda chiqindi va axlatlarni qayta ishlaydigan, bartaraf etadigan liniyalilar yo‘q. Tezlikda zararsizlantiruvchi liniyalarni qurish, chiqindi va axlatlarni yig‘ib, ularni zararsizlantirish texnologiyalarini yaratish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Atmosfera havosini toza saqlashda sanoat obyektlarini geografik sharoitga qarab joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda sanoat obyektlari va yirik kommunal korxonalari alohida sanoat zonasida uy-joy massivlaridan tashqarida bo‘lishi kerak. Shuningdek, shamolning yo‘nalishi uy-joy zonasidan sanoat zonasini tomon esadigan bo‘lishiga rioya qilish lozim. Aks holda, sanoatdan chikqan chang, qurum va gazlar uy-joy zonasini tomon shamol orqali kelib, havoni ifloslaydi. Uy-joy zonasini bilan sanoat zonasini orasida kengligi 100 m dan bir necha kilometr keladigan yashil o‘simliklardan iborat sanitariya-himoya zonasini bo‘lishi yaxshi natija beradi.

Atmosfera havosini toza saqlashda transport chiqindi gazlarini, tutunlarini kamaytirish juda muhimdir. Havoni ifloslantirishda transport turlari ichida benzin

bilan ishlaydigan avtomobillar (AQSHda-75 % ni tashkil etadi) yetakchilik qiladi, keyingi o‘rinlarda havo transporti (5 %), dizel dvigatelli avtomashinalar (4 %), traktor va boshqa qishloq xo‘jalik mashinalari (4 %), temir yo‘l va suv transporti (2 %) turadi. O‘zbekistonda havoni ifloslantirishda avtomobillar alohida o‘rin tutadi, ular atmosferaga chiqadigan umumiy zaharli moddalarning 60 foizini tashkil etadi. Toshkent, Andijon, Buxoro, Guliston, Samarkand kabi yirik shaharlarda bu ko‘rsatgich 80 foizgacha ko‘tariladi.

Shaharlar havosini toza saqlashda avtomobil yoqilg‘ilari sifatini yaxshilash, xususan, atmosferaga kam gaz chiqaradigan, quyuqlashtirilgan gazlardan foydalanishga o‘tish yaxshi natija beradi. Bunda gazning to‘liq yonishi tufayli atmosferaga zaharli moddalar kam chiqadi va bu jarayonni amalga oshirish juda arzonga tushadi. Masalan, Toshkent shahridagi ba’zi avtomashinalar 1978 yildan beri benzin o‘rniga yoppasiga quyuqlashtirilgan propan-butan yoqilg‘isi bilan ishlashga o‘tgan. Quyuqlashtirilgan gaz benzinga nisbatan 2-3-marta arzonga tushishidan tashqari atmosferaga juda kam zaharli moddalar chiqaradi. 2000-yil respublikada 15 mingdan ortiq avtomobil quyuqlashtirilgan tabiiy gazga o‘tganligi oqibatida, havoga iflos moddalarning qo‘shilishi 10 ming tonnaga kamaygan.

Avtomobillarning gaz asosida ishlashi (benzinda ishlashiga nisbatan) natijasida silindr gilzalari, porshenlar, porshen halqalari, vallarning yoyilishi SO-70% ga kamaydi. Dvigatellarning ish qobiliyatini esa 60% ga oshiradi. Ba’zi davlatlarda avtomobillar benzin emas, balki spirt bilan yurmoqda. Natijada, atrof-muhitga zaharli gazlar juda kam chiqarilmoqda va arzonga tushmoqda. Avtomobildan chiqadigan zaharli gaz miqdorini kamaytirish uchun yana ularning texnika holati va dvigatelga yoqilg‘ining bir me’yorda borishiga qatiy rioya qilish kerak. Avtomobildan chiqadigan gazning atmosferadagi miqdori, shuningdek, yo‘lning kengligiga, ko‘cha havosining almashib turishiga, avtomobil oqimining shahar transport arteriyalari bo‘ylab to‘xtovsiz harakat qilishiga ham bog‘liq. Agar chorrahalarda avtomobillar to‘planib qolsa, o‘sha joyda zararli gazlar ko‘proq to‘planib qoladi. Shuning uchun serqatnov ko‘chalarda avtomobil tunnellari, ko‘priklari va yo‘lovchilar uchun yer osti o‘tish joylari qurish avtomobillarning to‘xtovsiz harakatini ta’minlaydi.

Shaharlar havosini toza saqlashda tranzit (shaharlararo) qatnovidagi transportlarni shahar ko‘chalariga qo‘ymaslik, ularni shahar atrofidagi aylanma yo‘l halqasi orqali o‘tkazib yuborish yaxshi natija beradi. Shuningdek, avtotransport serqatnov ko‘chalar atrofida o‘simplik zonalari tashkil etish kerak. Chunki, bu o‘simplik to‘siqlari avtomobillardan chiqqan zaharli gazlarni yutib turishdan tashqari shovqin-suronni keskin kamaytiradi.

Nihoyat, shaharlar havosini - toza saqlash uchun jamoat transportining elektrenergiya asosida ishlovchi atmosferani ifloslamaydigan turlariga - metro, trolleybus, tramvaydan foydalanishga o‘tish zarur. Shaharlarda atmosfera havosini toza saqlashda elektrlashtirilgan transport (yer osti va yer yuzasi) ini ahamiyati katta. Elektrlashtirilgan transport aholini iflos gazlardan va shovqindan saqlaydi. Tramvay va trolleybuslarni shahar traksportidagi mavqeini ko‘tarish kerak, chunki bu transportlar hozirgi zamon uchun qulay va foydali transport turlaridir. Tramvay tezligini 16-20 km/soat o‘rniga 30-32 km/soatga ko‘tarish kerak. 1 km. tramvay

yo‘lining qurilishi, 1 km. metro yo‘li qurilishiga qaraganda, 8-12 marotaba arzon tushadi.

Hozirgi kunda yirik shaharlarda atmosfera havosini toza saqlash maqsadida, neft va benzinning tanqisligi hisobga olinib, alternativ yoqilg‘ilar izlanmoqda. Bu sohada elektromobilarning kelajagi porloq. Elektromobillar akqumulyativ batareyalar energiyasi asosida ishlaydi. Biroq, oddiy avtomobilarga nisbatan kuchsiz va akqumulyativ batareyalar benzinli motordan zaif bo‘lganligi sababli, hayotda o‘z o‘rnini tezlikda topa olmadi. Lekin, keyingi vaqtarda ba’zi davlatlarda elektromobillar xalq xo‘jaligida keng foydalanilmoqda. Masalan, Britaniya Birlashgan Qirolligida 45 ming elektromobil yo‘lovchi tashuvchi, 100 mingdan ortiq elektromobil esa zavod, shaxta, kasalxona va bog‘larda ishlamoqda (ularning tezligi soatiga 32 km. dan oshmaydi). “Klorid” kompaniyasi yaratgan avtobuslar elektrobatareyalar kuchida harakatga kelib, ularning tezligi soatiga 64 km. ga boradi. Ushbu avtobuslar 64 km. gacha yo‘lni batareyani qayta zaryadlamasdan yurishi mumkin.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning 26 shahrida atmosfera havosining ifloslanishi 65 statsionar (doim bir joyda turadigan) postlarda kuzatilmoqda. O‘zbekiston havosini ifloslanishini kuzatishga Gidrometerologiya boshqarmasi rahbarlik qiladi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhit ifloslanishini kuzatish markazi, Farg‘ona va Navoiy shaharlaridagi ikki kuzatish majmuasi, atmosfera havosining ifloslanishini kuzatuvchi 7 laboratoriya (Olmaliq, Andijon, Samarkand, Chirchiq, Angren, Bekobod shaharlari), havo ifloslanishini kuzatuvchi 4 guruh (Buxoro, Guliston, Nukus va Namangan shaharlarida), atrof-muhitni ifloslanishini kuzatuvchi Sariosiyo idoralararo laboratoriyasi va ikki monitoring (Chotqol qo‘riqxonasi, Abramov muzligi) stansiyalari kiradi. Yirik shaharlarimizdan Qarshi, Termiz, Kogon, Do‘stlik shaharlarida va boshqa xududlarda maxsus dasturlar bo‘yicha ishlaydigan ekspeditsiyalarda havoning ifloslanishini kuzatish ishlari olib boriladi. Atmosferani ifloslanishdan saqlashda, shahar va qishloqlar havosini sog‘lomlashtirishda ishonchli usullardan biri bo‘lgan yashil o‘simpliklar maydonini kengaytirish zarur.

Tuproq sho‘rlanishining oldini olish va unga karshi kurash yer resurslarini muhofaza qilishning eng murakkab vazifalaridan biri hisoblanadi. Tuproqning sho‘rlanishi arid zonalar landshaftlarining eng xarakterli xususiyatlaridan hisoblanadi. Lekin biz quyida insonning xo‘jalik faoliyatini, avvalo, yerkarni noto‘g‘ri sug‘orish natijasida vujudga keladigan tuproq sho‘rlanishi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Sug‘orish faqat tuproq qoplaminigina emas, balki butun landshaftni va landshaft komponentlari (relyef, yer osti va yer suvlari, o‘simplik qoplami, litologiya va h.k) ni o‘zgartirib yuboradigan kuchli omildir. Sug‘orish to‘g‘ri olib borilsa va yerdan oqilona foydalanilsa, odatda tuproqning hosildorligi oshadi. Lekin obikor yerkarning hamma joyida iqlim sharoitidan tashqari geomorfologik, gidrogeologik va litologik sharoitlar birday emas. Bu hol yerkarni sug‘orish rejimi va normasiga juda ehtiyyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Noto‘g‘ri sug‘orish, normadan ortiqcha suv berish yer osti suvlari oqimi sust bo‘lgan hududlarda suv balansining buzilishiga va minerallashgan grunt suvlarinining yer yuzasiga ko‘tarilishiga olib keladi, natijada tuproq sho‘rlanadi.

Tuproqning sho'rlanishi Osiyo, Afrika, Amerika va hatto Yevropaning janubidagi obikor dehqonchilik qilinadigan ko'pgina mamlakatlarda keng tarqalgan. Qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan obikor yerlarning sho'rlanishi natijasida, ishdan chiqib qolishi hozir ham davom etmoqda. Yerlarning sho'r suv qochiriladigan zovurlar, ya'ni drenajsiz sug'orish natijasida bir vaqtlar hosildor bo'lgan yerlarning unumsiz, sho'rlangan va sho'rxokli cho'llarga aylanganligini Eron, Hindiston, Pokiston, Mesopotamiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi qadimgi daryolar deltalarida ko'plab ko'rish mumkin. Ayrim joylarda hatto qayta (ikkilamchi) sho'rlanish ham keng avj olgan.

Drenajsiz qurilgan yangi sug'orish tizimlari Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo, Shimoliy Amerika, Janubiy Yevropa va boshqa joylarda, mineralallahgan yer osti suvlarining ko'tarilishiga va bug'lanishiga hamda ilgari sho'rlanmagan tuproqlarning sho'rlanib ishdan chiqib qolishiga sabab bo'lganligiga juda ko'plab misol keltirish mumkin. Respublikadagi asosan yangi sug'orilayotgan yerlar hisobiga sho'rlanish yiliga 2-3 ming gettarni tashkil etadi. Bunday yerlar Respublikaning deyarli barcha mintaqalarida uchraydi.

Ma'lumki, sug'oriladigan yerlarda tuproqning sho'rlanishi ekinlar hosilini keskin kamaytiradi. Masalan, kuchsiz sho'rlangan tuproqlar hosildorlikni 10-20 foiz, kuchli sho'rlangan tuproqlar esa 50 foizgacha pasaytiradi.

Yer yuzida sug'oriladi.an yerlar tuproqlari hozirgi sho'rlanishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- a) dehqonchilikda har bir joyning o'ziga xos tabiiy va tuproq sharoiti xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmaslik;
- b)sug'orish sistemalari qurilishini arzonga tushirishni o'ylab drenaj (zovur) inshootlarini o'z vaqtida barpo qilmaslik;
- v) dalalarda, kanallarda va sug'orish sistemalarida sug'oruv suvining ko'p sarflanishi; ortiqcha suv sarfi, jumladan, yer osti suvlar sathini ko'taradi.

Tabiiy ravishda suv yaxshi oqib ketadigan, ya'ni nishabi yaxshi bo'lган yerlarnigina drenajsiz sug'orish mumkin. Tuproq sho'rlanishining oldini olish va sho'r yuvishning eng sinalgan tizimi hozirda keng qo'llanilayotgan chuqr vertikal va gorizontal drenajlar o'tkazishdir. Sho'rlanishni butunlay to'xtatish uchun drenaj tizimi barpo qilishdan tashqari irrigatsiya kanallarini betonlashtirish, sug'oruv suvini beton ariqlar-lotoklar orqali yuborish, sug'orish me'yoriga qat'iy amal qilish lozim.

Sug'oriladigan yerlarda irrigatsiya qurilishlariga sarflanadigan katta xarajatlar g'alla, texnika ekinlaridan olinadigan yuqori hosil bilan juda tez qoplanadi. Umuman, yerlarni sug'orish qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini keskin oshirishda, oziq-ovqat muammosini muvaffaqiyatli hal qilishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Tuproqning botqoqlanishi bir tomondan tabiiy jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan inson xo'jalik faoliyatining salbiy oqibatidir. Yerlarning botqoqlanishi, ayniqsa, daryo to'g'onlari va suv omborlari atroflaridagi relyefi tekis joylarda yer osti suvi sathining ko'tarilishi natijasida sodir bo'ladi. Ba'zan bu jarayon sernam hududlardagi o'rmonlarning batamom kesib yuborilishi natijasida ham boshlanadi. Botqoqlanishga qarshi kurash va uning oldini olish o'ta sernam xududlarda maxsus

melioratsiya tadbirlarini o'tkazish bilan amalga oshiriladi. Bunda suv rejimini tartibga solishning xilma-xil usullari ko'zda tutiladi.

Cho'lga aylanish deganda, insonning xo'jalik faoliyati va tabiiy omillar ta'sirida arid o'lkalar ekosistemalarining buzilishi, hamma organik hayot shakllarining degradatsiyalashuvi va natijada bu hududlarning tabiiy iqtisodiy salohiyatining pasayishi tushuniladi. Cho'lga aylanishga arid o'lkalar tabiiy resurslaridan noto'g'ri foydalanish va yerlarni keng ko'lamda o'zlashtirish sabab bo'ladi. Cho'lga aylanish masalasi hozirgi vaqtda sayyoraviy masalalardan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarining tarkibiy qismidir.

Arid o'lkalarda cho'lga aylanish jarayoni, asosan, shu o'lkalarda aholi sonining o'sib borishi va qishloq xo'jaligi hamda sanoatda tabiiy boyliklardan tez sur'atlar bilan foydalanish natijasida cho'l landshaftlariga inson xo'jalik faoliyati ta'sirining ortib borishi bilan bog'likdir.

O'simliklarning yoqilg'i va yem-xashak maqsadida ishlatilishi, yaylovlarda me'yordan ortiqcha mol boqilishi, yo'llar, quvurlar, yirik irrigatsiya kanallari, sanoat korxonalari, aholi punktlari kabi qurilishlar deflyatsiya jarayonlarining rivojlanishiga, qum ko'chishiga, suv balansining buzilishi esa tuproqni sho'r bosishiga va tashqi muhitning ifloslanishiga, arid o'lkalar sharoitida tabiatda dinamik muvozanatning buzilishiga, ya'ni cho'lga aylanish jarayonining kuchayishiga olib boradi. BMT Bosh kotibining Saxeldagi (Sahroi Kabirdan janubda) qurg'oqchilikka qarshi kurash bo'yicha huqumatlararo qo'mitaga qilgan murojaatida "yana 50 yil o'tar-o'tmas Afrika kartasida uchta yoki to'rtta mamlakatni cho'llar bosib mutlaqo yo'q qilib yuborishi mumkin" deb yozilgan edi.

Suvni davlatlar tomonidan nazorat qilishni qatiy qilib qo'yish zarur. 1965-yildan to 2000-yilga qadar O'rta Osiyoda sug'oriladigan yerlar maydoni to'rt martadan ko'proq kengaytirildi, suvni iste'mol qilish uch martaga oshdi. 1960-yildan boshlab, Orol dengizi 75 foizdan ortiq suv zaxirasidan va 50 foiz hududidan mahrum bo'ldi. U avvalgi sohillaridan 100-120 km. ichkari chekindi va 33 ming kv. km. dan ziyod maydonni tark etdi.

Orol dengizining sho'rlik darjasini hozir uch karradan ko'proqqa ortgan va uning 1 litrida 30 grammdan ortiq tuz moddasi bor. Suv chekinishi tufayli dengiz tubida ochilgan 36 ming kv. km. dan iborat sohilda sho'rxok yerlar paydo bo'lган. Bu yerlarda har yili 75 mln. tonna zaharli tuzlar va chang-to'zonli shamol ta'sirida necha yuzlab kilometr naridagi joylarga borib, odamlar va ekinzorlarga jiddiy ziyon yetkazmoqda.

Quyidagi tarixiy voqeani esga olish zarur bo'lib qoldi: Buyuk Bobil qadimda 1,5 ming yil mobaynida Sharqning eng go'zal va badavlat o'lkasi, ilmu ma'rifat, iqtisod va madaniyat o'chog'i bo'lib kelgani hammaga ma'lum. Lekin shunday ulug'ver o'lkanning vayronaga aylanib, tarix sahifalaridan o'chib ketishiga bosqinchilar yoki dushman qo'shinlari emas, balki mamlakatning bosh mirobi yo'l qo'ygan bir xato sabab bo'lgan ekan. Ma'lumki, Bobilning xo'jalik tizimi ham xuddi bizdagidek, ikki ulug'daryo, ya'ni Dajla va Frot suvlaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, suvning ma'lum hajmi sug'orish ishlariga olinib, qolgan qismi esa dengizga oqib turgan. Shu tufayli qishloq xo'jaligida yaxshi hosil olib turishdan

tashqari, qirliklardan yuvilib keladigan loyka qum-shag‘al va tuz bilan hosildor yerlarni buzilishidan asrab kelingan. Eramizdan avvalgi 582-yilda Xoldey shohi Navxudonosor katta imperiyaga hukmronlik qilish orzusida Misrni ham qo‘sib oladi. Uning go‘zal malikasi Nitokrisga uylandi. Albatta, malikaning ayrim injiqliklari va talablarini bajarishga majbur bo‘ldi. Nitokris xonimning iltimosi bilan uning Misrdan kelgan qarindoshi bosh mirob vazifasiga tayinlanadi, unga katta mablag‘ va ishchi kuchi topshiriladi. Tez orada Bobil atrofidagi tekisliklardan yuzlab kilometrga katta Iallukata kanali qazilib, minglab gektar yangi yerlarda sug‘orish ishlari boshlanadi. Natijada, Frot daryosining suvi kamayib, oqimi sustlashib qoladi va suv bilan kelgan loyqa aralash qum-shag‘al va tuz eritmasi, yerlarga va kanallarga o‘tirib qola boshlaydi, yerlarni sho‘r bosishi oqibatida dehqonchilik qilish mumkin bo‘lmay qoladi.

Bug‘doyzor, arpazor va boshqa ekinzorlar keskin kamayib, yo‘qola borgach, juda katta otliqlar armiyasi ham, aholi ham qahatchilikdan qirila boshlaydi va nihoyat eramiz boshlarida shunday buyuk imperiyadan hashamatli qasrlarning xarobalari-yu, oppoq tuz bosgan bepoyon tekisliklar qoladi, xolos. O‘ylab qolasan kishi, nahotki birgina malikaning injiqligi tufayli shunday halokat ro‘y bergen bo‘lsa. Yo‘q, albatta, gap boshqa narsada. Agarda Bobil podshosi shu yer sharoitlarini yaxshi biladigan odamlar bilan maslahatlashib, tavakkalchilik bilan ish tutmaganda edi, bu falokat ro‘y bermasdi, albatta.

1995-yil sentyabr oyida Nukus shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida bo‘lib o‘tgan “Orol bo‘yi mamlakatlarining barqaror taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro konferensiya ham aynan yuqorida biz esga olgan muammolarga bag‘ishlangan edi desak, xato bo‘lmaydi. Bu anjumanda Markaziy Osiyodagi besh davlat prezidentlari, huqumatlar rahbarlari bilan birga o‘nlab xalkaro tashkilotlar va 35 davlatning vakillari ishtirok etib, o‘lkada yuzaga kelgan xavfli ekologik halokatni bartaraf etish masalalarini o‘rganib chiqdilar. Anjuman ishida 300 dan ortiq mutaxassislar, diplomatlar, vazirlar va davlat rahbarlari qatnashib, ular Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu asosiy muammolarni ko‘rib chiqdilar.

Orol dengizi falokati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘nlab yoki yuzlab yig‘inlar, majlislar va simpoziumlardan farqli o‘larok, bu anjumanda birinchi marotaba tarixiy Nukus deklaratsiyasiga imzo chekildi va undan kelgusida olib boriladigan siyosiy va amaliy ishlar bo‘yicha aniq majburiyatlar olindi, boshlang‘ich mablag‘lar ko‘rsatildi.

Deklaratsiya Markaziy Osiyo xalqlarini bir-butun tarzda, jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni va o‘zlarining aql zakovatlari, mehnatsevarliklari bilan takrorlanmas go‘zalliklar, cho‘llar bag‘rida bog‘u bo‘stonlar, barpo eta olganliklari fan va texnika, adabiyot, arxitektura va san’at borasida, matematika, astronomiya, tabobat va dehqonchilik sohalarida jahonda eng peshqadam maktablar yarata olganliklarini dunyoga namoyish qildi. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda ana shunday o‘lkada ro‘y bergen va yosh mustaqil davlatlar taraqqiyotiga katta xavf solib turgan Orol falokatining kelib chiqish sabablari ilmiy asosda ochib berildi va butun jahonga ma’lum qilindi.

Orol inqirozini to‘xtatib qolish juda qiyin ekanligi va buni bartaraf etish uchun avvalo “Besh og‘aynilar” orasida mustahkam yakdillik bo‘lishi, mablag‘lar va kuchlarning ma’lum maqsad sari yo‘naltirilishi taqozo etilayotgani ta’kidlandi. Bugungi kunda 60 millionga yaqin aholisi bo‘lgan bu o‘lkalarda 5ta mustaqil davlat joylashganligi e’tiborga olinadi. Suv, yer va tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish siyosati yuritilishi va uni amalga oshirishning unumli iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini yaratish juda zarur, degan xulosaga kelinadi.

Turkiston nomi bilan dunyoga tanilgan bu o‘lkada qadim zamonlardan beri do‘stlik va qardoshlik rishtalari bilan chambarchas bog‘langan xalqlar yashab keladilar. Hech shak-shubha yo‘qki, Orol taqdiri hech bir kishini befarq qoldirmaydi, bu falokat xalqlarni yanada yaqinlashtirib, bir-biriga ko‘makdosh-u-yelkadosh, yakdil hamfikr bo‘lib, ahil yashashga chorlamoqda.

Darhaqiqat, Orol dengizi bizning ko‘z o‘ngimizda halokat yoqasiga kelib qoldi. U og‘ir va tuzatib bo‘lmas dardga chalingan kasal odamni eslatadi. Buning sabablari bor, bu yerlarda sobiq ittifoq olib borgan mustamlakachilik siyosatiga borib taqaladi. Bu — dengizdan bir yoqlama foydalanish, uni qurban qilish zvaziga ekinzorlarni, ayniqsa, paxta maydonlarini kengaytirib borish, suv resurslarini aksariyat qismini ana shu maqsadda sarflash oqibatidir.

Shu tariqa Orol fojeasi ro‘y berdi. Bu fojea Markaziy Osiyo Respublikalari va xalqlarining boshiga tushgan og‘ir kulfatdir. Buni Chernobil fojeasi bilan qiyoslash mumkin. 19-asr oxirlarida Rossiya Turkiston o‘lkasini zabt qilganidan so‘ng, bu yerda mustamlakachilik siyosatini o‘tkaza boshladi. Ulkan xom ashyo bazasiga aylantirib, uni jami boyliklaridan imkoniboricha to‘la foydalanishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Mustamlakachilar yangi sug‘orish texnologiyalarini joriy etib, paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirish yo‘lini tutdilar.

O‘tgan asrning 20-yillarida esa bu o‘lkada sovet hoqimiyati o‘rnatilgach, avvalgi siyosat o‘zgarmay qolaverdi, ya’ni Turkiston o‘lkasi Markaziy huqumatning asosan paxta yetishtiriladigan xom ashyo bazasiligicha qolaverdi. Mustamlakachilik va jamiyatni sovetlashtirish siyosati bora-bora salbiy oqibatlarga olib keldi. Bu holat Orol dengizi misolida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyodagi 5 ta yosh davlat, ya’ni mustaqil davlatlar - Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston, Qиргизистон va Tojikiston respublikalarining hayoti Orol dengizi va uning suv manbalari bilan chambarchas bog‘langan. Ularni Orolsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki Orol dengizi ana shu o‘lkalarning, ayniqsa, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmanistonning iqlimiga, tabiatiga, ekologik sharoitiga, hayvonot va o‘simliklar olamiga juda katta ijobiy ta’sir o‘tkazar edi. Uning insonlar sihat-salomatligiga ko‘rsatadigan nafî haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Tabiat yaratgan mana shu ajoyib ne’mat, betakror dengiz yuqorida bayon qilinganidek, bugungi kunda og‘ir ahvolga tushib qolgan. Dengizning asosiy suv manbalari Amudaryo va Sirdaryo bo‘lib, ularning suv zaxiralari osmono‘par Pomir va Tyan-Shan tog‘laridagi katta muzliklarning erishidan hosil bo‘ladi. Yer yuzidagi eng qadimiy ko‘llardan biri Orol, Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan sobiq ittifok davrida shafqatsizlarcha foydalanish oqibatida qurib qoldi. Qishloq xo‘jaligini va

ayniqsa, paxtachilikni zo'r berib rivojlantirish suvni ko'p talab qilishi o'z-o'zidan ravshan, bunday siyosat pirovardida falokatga olib kelmasligi mumkin emas edi.

Eng dahshatlisi shu bo'ldiki, dengiz tubidan bo'shagan joylarda agrokimyo qo'shilmalari va tuzlardan iborat zaharli moddalarning usti ochilib qoldi. Kuchli shamollar ana shu halokatli moddalarni osmonu falakka uchirib, juda olis joylarga purkay boshladi.

Buning oqibatida Orol dengizi atrofidagi o'lkalarda mudhish vaziyat vujudga keldi: katta-katta maydonlardagi ekinzorlar quriy boshladi: daraxtlar, o't-o'lanlar, tuproq, suv va havo zaharlandi. Ayniqsa, odamlarning sihat-salomatlighiga, hayvonot olamiga katta ziyon yetdi. Ilgari yashab turgan ko'pgina joylarning ekologik sharoiti yomonlashib, ular kimsasiz dasht biyobonlarga aylandi.

Dengizning sho'rlik darajasi 3 karra oshganligi mutaxassislarning tadqiqotlaridan ma'lum. Bu holat dengizdagagi ekologik tizimning butunlay izdan chiqqanligidan, unda yashovchi jonivorlar uchun hayot tugaganidan dalolat beradi. Bir vaqtlar hatto, chet elga chiqariladigan ajoyib Orol baliqlari kishilar xotirasida qoldi, xolos. Dengiz atrofidagi muzofotlarda hozir 4,0 milliondan ortiq aholi yashaydi.

Orol, muammosini yolg'iz bir davlatning, yolg'iz bir xalqning g'ayrati bilan hal qilib bo'lmasligi ko'rinish turibdi. Hatto, mazkur hududda joylashgan davlatlarning ham bu masalani yechishga qurbi yetmaydi. Bu jahon miqyosida, juda ko'pchilik davlatlarning faol ishtiroki bilan hal qilinishi lozim bo'lgan o'ta murakkab va dolzarb muammodir.

Shu bois, ko'pchilik davlatlarning, ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarining, shu jumladan, Qozog'iston, O'zbekiston davlatlarining ommaviy axborot vositalari, yetakchi olimlari, ushbu muammo bilan shug'ullanuvchi mutaxassislari Orol qismati to'g'risida astoydil tashvishlanib bong urmoqdalar, bu noyob dengizni saqlab qolish to'g'risida bosh qotirmokdalar, o'z takliflarini o'rtaga tashlamoqdalar. O'zbekiston Respublikasi huqumatining va Markaziy Osiyodagi qo'shni respublikalar huqumatlarining tashhabbusi bilan Orol dengizi muammosiga bag'ishlab bir necha simpoziumlar, konferensiyalar hamda olimlar va mutaxassislarning amaliy uchrashuvlari o'tkazildi va o'tkazilmoqda.

Dengiz atrofidagi ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan ibratli ishlar boshlandi. Orol dengizi atrofida yashovchi aholiga, ayniqsa, bemorlar va bolalarga turli xayriya yordamlar kuchaytirildi, respublikamizdan va hatto chet el mamlakatlaridan zarur dori darmonlar muntazam yuborib turilibdi. O'zbekiston suvining 90 foizi xorijiy davlatlardan keladi. Hozirda suv miqdori 10-15 foizga kamayapti, 1 hektar yerga 14-18 kub/m. suv sarflanadi. Navoiy azot birlashmasi yiliga 33 mln. kub/m. suv sarflaydi. Bu aholisi 50 ming bo'lgan shahar ta'minoti uchun yetarli suvdir. Respublikada 1 yilda 43-52 kub/km. suv sarflanadi. Bu jami ehtiyojning 70 foizini qoplaydi.

Yer osti chuchuk suv manbalari 357 ta, uning zaxirasi sutkasiga 21,4 mln. kub/m. Bu suvdan 10,5 mln. kub/m. kundalik ichishga sarflanadi. Hozir 267 ta yer osti suvidan kuniga 8,5 mln. kub/m. suv olib foydalaniladi. Yer osti ichimlik suvi yetarli, ammo yer ostidagi chuchuk suvning 40 foizi ifloslangan. 1 kub/m. oqova suv 40-60 kub/m. tabiiy toza suvni yaroqsiz holatga keltiradi.

Respublika suv havzalariga yiliga 300 mln. kub/m. ifloslangan suv qo'shiladi. Chirchiq elektrkimyo kombinati Chirchiq daryosiga har yili 230 million kub/m. oqova svnvi tashlaydi.

Biologik xilma-xillik umumiy ma'noda "hayotning xilma-xilligini" anglatadi. Bu tushuncha genetik har xillikni, keng tarmoqlangan taksonomik birliklarni (oila, sinf, tip va boshqalar), shuningdek, har xil muhit sharoitlarini va ekotizimlarni o'z ichiga oladi. Madomiki, "Biologik xilma-xillik" juda xam keng ma'nodagi tushuncha bo'lganligi uchun, unga qo'yiladigan aniq xususiy talablar hozirgi kunda yo'q; uning qaysi soxada ishlatalishiga bog'liq. Ko'pincha, amaliyotda biologik xilma-xillik deyilganda, avvalom bor, turlarning xilma-xilligi tushuniladi.

Biologik xilma-xillik, oddiy hayotiy shakllarga nisbatan ancha keng qamroqli. U nafaqat amaliy tekshirishlarning yo'nalishlarini aniqlaydi, balki shunday maqomga egaki, agar biologik xilma-xillik mavjud bo'lsa, ekotizimning barqarorligi mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ham uni doimiy ravishda himoya qilish maqsadga muvofiq va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida biologik xilma-xillikni asrash masalasiga alohida e'tibor beriladi<sup>1</sup>.

Ekotizimda kechadigan murakkab jarayonni o'rganish Biologik xilma-xillikning mohiyatini anglashga, shuningdek, jonli organizmlardan insonlar tomonidan foydalanishning ilmiy jihatdan asoslangan yangi shakllarni yaratib beradi. Million yillar davomida tabiatda kechayotgan tabiiy tanlash natijasida har bir populyatsiya ma'lum muhit sharoitlarida yashashga moslashgan va muayyan irsiy xususiyatlarga ega bo'lib, bular avloddan-avlodga o'tib turadi. O'simlik va hayvonlar populyatsiyasi insonning amaliy faoliyatining asosiy obyekti hisoblanadi<sup>2</sup>. Hozirgi kunda Yer yuzasidagi tabiiy populyatsiyalar antropogen omilning kuchli ta'siriga uchragan.

Hozir Yer yuzasidagi 120 dan ortiq mamlakatda 8,5 million kvadrat kilometrga yaqin maydonni egallagan 8500 dan ortiq muhofaza qilinadigan hududlar mavjud. Ularni tashkil qilishdan asosiy maqsad, kelgusi avlodlarga bugungi kundagi mavjud ekotizimlarni tabiiy holida yetkazishdir. Ushbu hududlarni samarali boshqarishda iste'mol mahsulotlariga mahalliy aholining talab va ehtiyojlarini inobatga olish muhim.

1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan atrof-muhit va rivojlanish masalasiga bag'ishlangan Umumjahon sammitida biologik xilma-xillik to'g'risida Konvensiya qabul qilindi. Uni jahoning 188 ta mamlakati ratifikatsiya qilgan. Shu tariqa, bu hujjat eng obro'li xalqaro shartnomalardan biri bo'lib qoldi. 2000-yilda jahon yetakchilari Ming yillik Deklaratsiyasini qabul qilishgan edi. Bu hujjatda XXI asrda sakkiz yo'nalishdagi rivojlanish maqsadlari belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarning biri biologik xilma-xillikning yo'qolib borish sur'atlarini qisqartirishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonning 1995-yilda "Bioxilma-xillik to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyaga qo'shilgani va mamlakatimizda konvensiya talablarini hisobga olgan holda respublikamiz qonunchiligiga qator tegishli o'zgartishlar kiritilgan.

<sup>1</sup> Pol Metchell-101 klyuchevaya idei: Ekologiya. Moskva, 2001,-11 bet

<sup>2</sup> Egachberdiyev R . Jumaniyachov M., Babayev 3., Kurambayev Sh. , Sherjanova U , Sadullayeva 3. Biotexnologiya va ozikgovkat ьюаммоларя Urgaet.2002, 57-bet

Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) 2010-yilni Xalqaro Biologik xilma-xillik yili deb e'lon qildi. BMT shu tariqa Yer yuzi tabiatini himoya qilish va undan oqilona foydalanish masalasiga e'tibor qaratish, ekologik tizimning xilma-xilligini saqlash va noyob tabiat obyektlarini asrash yo'lidagi harakatlarni amalga oshirishga intilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasida Respublika Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitalari hamkorligida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ichimlik suvi hamda energiya resurslarini isrof qilish, o'rmonlarning ommaviy ravishda kesib yuborilishi biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelib, inson faoliyatining tabiatga ta'sirini kuchaytirmokda. Bugungi kunda 7 mingdan ortiq jonivorlar va 60 mingdan ortiq o'simlik turlari yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Ma'lumki biologik xilma-xillik yerdagi barcha hayotning xilma-xilligini - hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar, ularning genlari va ekotizmlarni anglatadi.

Ushbu termin zamirida ma'lum bir organizm to'g'risida ma'lumot emas, balki biologik dunyoning barcha qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabat o'z aksini topgan. O'zbekistonning biologik xilma-xilligi 27 mingdan ortiq turni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi bir qancha biografik o'lkalar tutashgan hududda joylashganligi bois, uning bioxilma-xilligi nihoyatda boy. Yurtimizning cho'l va tekisliklardan iborat keng tekisliklari, tog'-dashtlar, o'rmonlar, yaylovlari, to'qayzorlar, suv havzalari, madaniy landshaftlar - bularning barchasi o'ziga xos flora va fauna majmualarga ega ekotizimlarni tashkil etadi.

Har qanday tizimning tarkibi qonuniy ravishda ular jismlarining bog'lanishidir. Ekotizimlarning tuzilishi ko'p tarmoqli bo'lib, uni tekshirish bir kancha aspektlarga ajratiladi<sup>3</sup>. Tur (species) atamasi organik moddalarga nisbatan ilmiy manbalarda ishlatila boshlanganiga ikki asrdan oshdi. Dastlab tur iborasini Jon Rey o'zining "Historiagenezalisplantarum" degan asarida qo'llab, eng kichik organizmlarning yig'indisi, amaliy morfologik, birga ko'payadigan va avlod beradigan, o'xshashlikni saqlab qoladigan individlarni tur deb atash fikrini ilgari suradi<sup>4</sup>. Bu atamaning fanda o'z o'rnnini topishda yirik ingliz tabiatshunos olimi Karl Linneyning xizmati katta bo'lgan.

Populyatsiyalar turlarga boy yoki aksincha, kam bo'lishi mumkin. Doimiy ravishda ekologik omillar salbiy ta'sir etuvchi hududlarda joylashgan biotsenozlarda ham turlarga ajralish unchalik yuqori bo'lmaydi. Biotsenozlarning tur tarkibi, boy yoki kamyobligidan tashqari, ularning uzoq yashashiga ham bog'liqdir. Insonlar tomonidan shakllantirilgan biotsenozlar (dala, bog' va polizlar) tabiiy holdagisiga nisbatan (o'rmon, sahro, yaylovlari) turga juda ham kam bo'ladi. Lekin tur jihatidan juda kam biotsenoz ham o'z ichida bir qancha o'nlab tur organizmlarni saqlaydi, bular turli tizim va ekologik guruhlarning vakillaridir. G'alla ekinlaridan tashkil topgan agrotsenozlarda kam miqdorda bo'lsa ham, har xil begona o'tlar, hasharotlar,

<sup>3</sup> Chernova N.M., Bilyova AMEkonobiya Moskva. 1988-168 bet.

<sup>4</sup> Zavadskiy K.M. Ucheniye o vide. Leningrad, 1961, -11 bet

bug‘doy zararkunandalari va yirtqichlar kabi boshqa ko‘pchilik turlar yashashlari mumkin. Turga boy bo‘lgan biotsenozlarda bir-biriga aynan o‘xhash turlarni uchratish juda qiyin. Shunday qilib, tur tarkibini oddiy taxlil qilish ham biotsenozning xilma-xilligini kuchli ravishda qisqartiradi. Turlarning mo‘lligi ma’lum maydonda bir turga munosib individlarning soni yoki ularning ishg‘ol qilgan maydoni bilan belgilanadi.

“Hayot shakli” degan ibora birinchi marta daniyalik botanik olim Ye. Varming tomonidan 1884-yili taklif qilinadi. Ya’ni, hayot shakli deganda, o‘simliklarning barcha o‘sish a’zolari butun hayoti davomida tashqi muhit bilan doimiy garmonik bog‘lanishda bo‘ladi, deb tushunadi. Uzoq davom etgan taraqqiyot bosqichi davomida o‘simliklar hayotiga ta’sir qilgan muhitning bir necha ekologik omillari ta’sirida hozirgi kunda mavjud bo‘lgan turlar ana shu omillarga moslanish mahsulidir. O‘simliklarning bunday moslashishlari o‘simliklar geografiyasi fanining asoschilaridan A.Gumbold, A.K.Krasnov, K.Raunkiyer, Braun-Blanke, B.A.Keller kabi yirik botanik olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Daniyalik botanik Kristen Raunkiyer “Hayot shakli”ni tasnif etishda faqat bitta belgiga e’tibor beradi. Bu belgi turlarning adaptatsiyasi, ya’ni moslashuvida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, kurtaklarni yoki yuqorida joylashgan novdalarning yilning noqulay sharoitlarida tuproqqa yoki qor qatlamlariga nisbatan joylashishi aniqlangan. Olim o‘z tasnifini, dastavval, Yevropa o‘simliklariga, keyinchalik esa tropik zona o‘simliklariga ham tatbiq etadi. Shunday qilib, bu tasnif dunyo olimlari tomonidan tan olingan va konseptual tasnifga aylangan.

K.Raunkiyer o‘simliklarni ularning hayot shakliga qarab, quyidagi 5 guruhga ajratadi:

1. Fanerofitlar (ph) - bu xildagi o‘simliklar, asosan, daraxt va butalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning kurtaklari yerdan ancha balandda joylashgan. Yilning ob-havo sharoitlari noqulay bo‘lgan paytlarida barglari to‘kiladi va shox-shabbalari esa uyqu davrini o‘taydilar.

2. Xanefitlar (ch) - kurtaklari yerdan uncha yuqori joylashmagan chala buta va butachalarni o‘z ichiga oladi. Qishda bunday kurtaklar qor ustida va ostida qishlaydi. Chernika, brusnika va shunga o‘xhash shimoliy zonada o‘sadigan o‘simliklarning ko‘pchiligi anna shu turqumga kiradi.

3. Gemikriptofitlar (NK) — qishlaydigan qismlari, shu jumladan, kurtaklari ham tuproq yuzasida joylashgan ko‘p yillik o‘t o‘simliklari bo‘lib, ularning kurtaklari maxsus qobiqlar - xazon va qisman tuproq bilan qo‘shilgan bo‘ladi va shu holda qishlaydi. Bu guruhga o‘rtacha iqlimli keng o‘rmonlarda o‘sadigan o‘simliklarning vakillari kiradi.

4. Kriptofitlar (K) - qishlovchi a’zolari, shu jumladan, kurtaklari tuproq ostida joylashgan ko‘p yillik o‘tlardan tashkil topgan. Ularning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tiganagi yer ostida qishlashga moslashgan. Bu xildagi o‘simliklar quruqlik, botqoqlik va suv muhitida yashovchi ko‘pgina o‘simliklarning vakillaridan tashkil topgan.

5. Terofitlar (Th) - bir yillik o‘simliklardan tashkil topgan bo‘lib, ular har yili urug‘idan unib chiqadi va shu yilning o‘zida halok bo‘lib, faqat urug‘

qoldiradilar. Markaziy Osiyoning cho'l mintaqasidagi bir yillik o'simliklarni ularga misol tariqasida keltirish mumkin.

K.Raunkiyerning fikricha, organizmlarning hayot shakllari tarixiy jarayon bo'lib, bu o'simliklar dunyoning iqlim sharoitlariga adaptatsiyasi yoki moslashishining natijasidir. O'rganilayotgan hayot shakli jihatidan turlarning taqsimlanish foizini biologik spektr deb ko'rsatadi. Har bir hudud va davlatlar uchun biologik spektr tuzilgan bo'lib, u shu mintaqaning iqlim sharoitlarini aniqlashda indikator vazifasini bajaradi. Shunday qilib, issiq va nam iqlimli tropik zonalar **fanerofit** iqlimli, o'rtacha iqlimli zonalar esa **gemikriptofit** iqlimli deb yuritiladi.

| Genotip                                | Genotip                                   | Genotype                                       | Ma’lum bir organizm yoki xujayrada jamlangan barcha irlsiy xususiyatlar majmuasi.   |

|                                     |   |                            |  |
|-------------------------------------|---|----------------------------|--|
| Prinsip Gauze                       | Prinsip Gauze                               | Gause principle            | Agar ikki tur sonining o'sishi bir hil hayotiy muhim resurs tomonidan chegaralangan bo'lsa ular bir hil chegaralangan hududda mayjud bo'la olmaydi.  |
| Genofond                            | Genofond                                    | The gene pool              | Ma'lum bir populyatsiyadagi hamma individlar genlarining majmuasi.   |
| Geterotrofы                         | Geterotrofы                                 | heterotrophs               | Tayyor organik moddalar bilan oziqlanadigan organizmlar. Ularga odam, hamma hayvonlar, hamda zambrug'lar kiradi.   |
| Gigiyena                            | Gigiyena                                    | Hygiene                    | Sog'lom hayot tarzi tug'risidagi fan. Odamning sog'ligiga, mexnatga layoqatiligidagi va hayotining davomiyligidagi muhitning turli omillari (tabiiy omillar, maishiy sharoit va b.q) ta'sirini o'rghanadi. |
| Gidrosfera                          | Gidrosfera                                  | Hydrosphere                | Yerdagi barcha suv obektlarining majmuasi. U yer usti va yer osti gidrosferalariga bo'linadi.  |
| Gomeostaz                           | Gomeostaz                                   | Homeostasis                | Biologik tizimlarning (organizmlar, populyasiyalar va yekotizimlar) ichki muhitini xossasi va tarkibining doimiyligini saqlash va o'zgarishlariga qarshilik ko'rsatish xususiyati.                         |
|                                     |   |                            | <b>D</b>   |
| <b>Davlat ekologik ekspertizasi</b> | Gosudarstvennaya ekologicheskaya ekspertiza | State Ecological Expertise | Davlat tabiatni muhofaza qilish organlari komissiyasining materiallarini tekshirish. Faoliyatning ma'lum turini ekologik talablarga javob berishini baxolaydi.   |

|                                |                          |                                   |  |
|--------------------------------|--------------------------|-----------------------------------|--|
| <b>Dezinfeksiya</b>            | Dyezinfeksiya            | Disinfection                      | Kimyoviy vositalar yordamida kasalliklar tarqatuvchi, zararli hasharotlarni (chivinlar, pashshalar, bitlar, kanalar) yuqotish. Hozirgi vaqtda qushlar, baliqlar, yirtqich hasharotlar va boshqalar yordamida dezinfeksiya qilish keng tarqalgan. |
| <b>Demografik jadval</b>       | Demografiya tablitsa     | Demographics table                | Yosh bo'yicha o'limning taqsimlanish xususiyati to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lgan jadval. Inson hayotining o'rtacha davomiyligini bashorat qilish uchun foydalilanadi.  |
| <b>Dunyo Okeani biomassasi</b> | Biomassa Mirovogo okeana | The biomass of the world's oceans | Yer gidrosferasining asosiy qismida yashaydigan barcha organizmlar yig'indisi.   |
|                                |                          |                                   | <b>E</b>   |
| <b>Yer biomassasi</b>          | Biomassa Zemli           | Biomass Earth                     | Yer sayyorasidagi barcha tirik moddalar yig'indisi. Yer biomassasining 97% ini o'simliklar, 3% ini hayvonlar tashkil qiladi.   |
| <b>Yerlarni quritish</b>       | Osusheniye zemel         | land Drainage                     | Kanallar qazish va quvurlar yotqizish yordamida grunt suvlari va yer osti suvlarini chiqarish yo'li bilan tuproq holatini yaxshilashga qaratilgan meliorativ tadbir.   |

|                               |                            |                                |  |
|-------------------------------|----------------------------|--------------------------------|--|
| <b>Yorug‘lik</b>              | Svet                       | Shine                          | Yerdagi energiyaning birlamchi manbai. Fotosintezda qatnashadi, shu tarzda quyosh energiyasi o‘simliklar orqali boshqa organizmlarga o‘tkaziladi. Shu bilan birga yorug‘likning signal xususiyati ham muhim ahamiyatga ega. Asosiy signal vazifasini fotodavr ya’ni yorug‘ kunning uzunligi o‘taydi. |
| <b>Jamoalar mahsuldorligi</b> | Produktivnost soobshchestv | Productivity communities       | Organizmlar jamoalarining, hamda ular alohida elementlarining yangi biomassa yaratish qobiliyati.  |
| <b>Jamoalar tuzilmasi</b>     | Struktura soobshchestv     | The structure of the community | Tabiiy ekotizimlar qonuniyatlarini tushinish uchun ahamiyatli bo‘lgan sistematik holati, energiya va moddalarning ko‘chishidagi roli, oziq zanjiridagi o‘rni yoki boshqa belgilari bilan bir-biridan farq qiladigan turli organizmlar guruhlarining nisbati.   |
|                               |                            |                                | <b>I</b>   |
| <b>Ifloslanish turlari</b>    | Vidы загрязнения           | Types of pollution             | Ifloslanishning qo‘yidagi turlari mavjud: tabiiy ifloslanish – vulqon otilishidan hosil bo‘lgan changlar, chang bulutlari; fizik ifloslanish-radiasiya, shovqin; kimyoziy ifloslanish – kuchli zaxarli organik moddalar, texnik chiqindilar va qishloq xo‘jalik oqova suvlari.                       |

|   |                       |                                   |  |
|---|-----------------------|-----------------------------------|--|
| <b>Ifloslanish</b>                          | Zagryazneniye         | Pollution                         | Atrof muhitga har qanday qattiq, suyuq va gazsimon moddalar, mikroorganizmlar yoki energiyaning (tovush, shovqin, nur) inson va hayvonlar salomatligi uchun ekotizim holati uchun, zararli bo‘lgan miqdorda tushishi.  |
| <b>Immunitet</b>                            | Immunitet             | Immunity                          | Organizmning yuqumli kasalliklarni qabul qilmaslik qobiliyati. Immunitet ikki hil bo‘ladi: 1. Tug‘ma immunitet – ya’ni, ona organizmdan o‘tadi. 2. Ortirilgan immunitet – ya’ni, kasallik yuqtirilgandan so‘ng hosil bo‘ladi.                                  |
| <b>Iqlim</b>                                | Klimat                | Climate                           | Ma’lum joyda yil davomida ob-havoning navbatma-navbat almashinishi. Iqlim joyning geografik kengligiga, yer yuzasining xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lum bir joyning iqlimi qanday bo‘lishi uning okeanga yaqinligiga bog‘liq bo‘ladi.                   |
|   |                       |                                   | <b>Y</b>   |
| <b>Yo‘l qo‘yiladigan chiqindi chiqarish</b> | Utilizatsiya otxodov. | <b>Disposal of waste disposal</b> | Ma’lum bir tashkilot tomonidan vaqt birligi davomida atmosferaga chiqarishga (yoki suv xafzasiga tashlashga) ruxsat beriladigan maksimal miqdordagi ifloslovchi modda, bunda ushbu moddaning miqdori uning ruxsat etilgan konsentrasiyasidan oshmasligi kerak. |
|   |                       |                                   | <b>K</b>   |

|                      |                        |                         |   |
|----------------------|------------------------|-------------------------|---|
| <b>Karst</b>         | Karst                  | Karst                   | Gips, ohaktosh, toshko‘mir kabi tog‘ jinslarining suvda erishini o‘z ichiga oladigan geologik hodisa. Bunda yer osti bo‘shlig‘i (masalan, g‘orlar) va yer yuzasining cho‘kishi hosil bo‘ladi. Rossiyada karstlar Shimoliy Kavkazda va Rus tekisligining markaziy qismida tarqalgan.   |
| Kansyerogen moddalar | Kanserogenie veshestva | carcinogenic substances | Organizmga ta’sir ko‘rsatganda, unda xavfsiz va xavfli o‘sintalar hosil qilishga qodir bo‘lgan kimyoviy birikmalar.   |
| Konsumentlar         | Konsumentы             | consuments              | Tayyor organik moddalarni iste’mol qiladigan organizmlar. Ular o‘txo‘r (mollar), o‘txur yoki yirtqich (sher) va hammaxo‘r (odam) kabi turlarga bo‘linadi.   |
| Kislotali yomg‘irlar | Kislotnyy dojd         | Acid rain               | Oksidlangan (Rh 5,6 dan past) yog‘inlar: yomg‘ir yoki qorni ifodalovchi ibora. Oltingugurt ikki oksidi va azot oksidlariidan iborat bo‘lgan sanoat chiqindilarini atmosferaga chiqarishda hosil bo‘ladi, atmosferada bu moddalar suv bug‘lari bilan birikib oltingugurt va azot kislotalarini hosil qiladi. Muhitning oksidlanishi muhim ekologik muammolardan biridir. |
|                      |                        |                         | <b>L</b>  |

|                            |                         |                  |   |
|----------------------------|-------------------------|------------------|---|
| <b>Landshaft</b>           | Landshaft               | Landscape        | Tabiiy hududiy majmua, u yerda turli tabiiy komponentlar (relef, tog‘ jinslari, iqlim, suv, tuproq, hayvonot va o‘simgiliklar dunyosi) o‘zaro bog‘langan va o‘zaro munosabatda bo‘lib joyning ma’lum bir turini hosil qiladi, insonning xo‘jalik faoliyati natijasida hosil bo‘lgan landshaftlar antropogen landshaft deyiladi.   |
| <b>Limitlovchi omillar</b> | Limitiruyushiye faktory | limiting factors | Organizmning extiyojiga nisbatan ko‘p yoki kam bo‘lgan omillar ular rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.  |
| <b>Litosfera</b>           | Litosfera               | lithosphere      | Yerning yer pusti qismini o‘z ichiga oladigan qattiq qatlam. Yer pusti tog‘ jinslaridan tashkil topgan va inson uchun muhim resurs bo‘lib hisoblanadi, chunki unda foydali qazilmalar, tabiiy qurilish materiallari va yoqilg‘i – energetik xom ashyo mavjud  |
|                            |                         |                  | <b>M</b>  |
| <b>Magnit bo‘roni</b>      | Magnitnye buri          | Magnetic storms  | Quyosh faolligi davrida hosil bo‘ladigan yer magnit maydonining kuchli o‘zgarishi. U yurak qontomir va boshqa kassaliklarga chalingan odamlarda tez namoyon bo‘ladi. Shuningdek hayvonlar, qushlar, xasharoitlarga ham ta’sir qiladi. Inson ham Yerning magnit maydoniga o‘zgartirish kiritishi mumkin. Bunday ta’sirning asosiy manbai elektr uzatish liniyalari va radiotelevizion stansiyalar tomonidan hosil qilinadigan elektromagnit maydoni hamda fazoviy raketalar faoliyati hisoblanadi. |

|                            |                     |                    |  |
|----------------------------|---------------------|--------------------|--|
| <b>Maishiy chiqindilar</b> | Вытовые отходы      | Household waste    | Maishiy sharoitda hosil bo‘ladi, odatda qattiq moddalar (qog‘oz, shisha, plastmassa va boshqalar) va qolgan oziq ovqat mahsulotlaridan tashkil topadi. Suyuq (chiqindi suvlar) va gazsimon (turli gaz chiqindilar) moddalar bo‘lishi ham mumkin.   |
| <b>Minimum qonuni</b>      | Zakon minimuma      | wage law           | Bunda hosildorlik (mahsulot) minimum holatda bo‘lgan omilga bog‘liq bo‘ladi. (masalan, agar tuproqda fosfor miqdori minimal darajada bo‘lsa bu hosildorlikni pasaytiradi.)   |
| <b>Madaniy landshaft</b>   | Kulturniy landshaft | Cultural landscape | Insonning xo‘jalik faoliyati davomida uning o‘z extiyojlarini qondirish uchun ongli ravishda o‘zgartirilgan landshaft (buyurtmalar, milliy bog‘lar, alohida sayohatgohlar va b.q). Antropogen landshaftlardan yuqori iqtisodiy samaradorligi va inson hayoti uchun optimal muhiti bilan farq qiladi. |
| <b>Muz davri</b>           | Lednikoviy period   | ice Age            | Yerning tarixiy geologik bosqichi, bu davr davomida iqlimning keskin sovushi kuzatilib muzliklar hosil bo‘lishiga olib kelgan. Iqlimning bunday og‘ishi yuzlab, minglab, millionlab yillar davom etishi mumkin. So‘nggi muz davri taxminan 10 ming yil oldin tugagan.                                |
| <b>Mavsumiy marom</b>      | Sezonnyiy ritm      | Seasonal rhythm    | Organizmlarning yil fasllari almashinishiga ko‘rsatadigan reaksiyasi. U fotodavriylik tomonidan boshqariladi.  |

|  |  |   |   |
|--|--|---|---|
| <b>Kam chiqimli texnologiya</b>                          | Malo otxodnye texnologii                           | Not for dying technology                              | Bu texnologiya yordamida qattiq, suyuq va gazsimon chiqindilarni yeng kam miqdorda chiqishiga erishish mumkin.  |
| <b>Xalqaro atrof muhitni muhofaza qilish ob'yektlari</b> | Mejdunarodnye obyekty po oxrane okrujajuşçey sredy | International facilities for environmental protection | Xalqaro hududiy chegaralarni qamrab olgan (atmosfera havosi, dunyo okeani, fazo) va xalqaro chegaralarni kesib o'tadigan (hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari va b.q) obyektlar.   |
| <b>Tuproq meliorasiyasi</b>                              | Melioratsiya pochv                                 | soil Reclamation                                      | Tuproq umumdorligini yaxshilashga qaratilgan tadbir. Gidrotexnik melioratsiya – sug'orish, quritish, sho'r tuproqni yuvish; fizik malioratsiya – qo'mlash, loyqalash va shu kabilar; kimyoviy melioratsiya – gipslash, oksidlash va b.q.                        |
| <b>Mikrobiologik ifloslanish</b>                         | Mikrobiologicheskoye zagryazneniye                 | Microbiological contamination                         | Ekotizimlarga xos bo'limgan, biotik tuzilmalar yashash sharoitiga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi organizmlarning kiritilishi. Yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi bilan ifloslanish eng xavfidir.  |
| <b>Mikroelementlar</b>                                   | Mikroelementy                                      | Micronutrients  | Organizm uchun juda kam miqdorda hayotiy zarur bo'lgan kimyoviy elementlar. Ularga temir, marganes, kobalt, vanadiy, ftor, molibden, bor, rux, natriy, mis elementlari kiradi. Organizmda ularning yetishmasligi yoki ortiqcha bo'lishi kasallikka olib keladi. |

|                            |                   |                  |   |
|----------------------------|-------------------|------------------|---|
| <b>Sovuqqa chidamlilik</b> | Morozostoykost    | frost-resistance | Organizmlarning past salbiy xaroratga chidamlilik hususiyati.   |
| <b>Mutasiyalar</b>         | Mutatsiya         | Mutation         | Organizmda tabiiy va sun'iy omillar ta'siri ostida yuzaga keladigan genetik o'zgarishlar. Mutasiyalar tirk tabiatda irsiy o'zgaruvchanlikning asosi bo'lib hisoblanadi. Mutasiyalarni chaqiruvchi omillarga mutagenlar deyiladi.  |
|                            |                   |                  | <b>N</b>  |
| <b>Milliy bog'</b>         | Natsionalnuy park | national park    | Tabiiy komplekslar saqlanib qolgan, muhim ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan, insonlarning dam olishi uchun foydalaniladigan hudud. Har qanday sanoat korxonalaridan to'lig'icha ozod qilingan. Rossiyada 30 dan ortiq milliy bog'lar bor. Ulardan eng taniqlilari "Sochi", "Valday", "Bug'i orol" milliy bog'laridir. |
| <b>Noosfera</b>            | Noosfera          | noosphere        | Biosfera rivojining yangi bosqichi, unda insonning ongli faoliyati uning rivojlanishini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi. Bu tushuncha biosfera yevolyusiyasiga inson ta'sirini baholash tufayli paydo bo'lgan.  |
|                            |                   |                  | <b>O</b>  |

|                           |                |                 |  |
|---------------------------|----------------|-----------------|--|
| <b>Ozon tuynugi</b>       | Ozonovaya dyra | The ozone hole  | Ma'lum balandlikdagi atmosfera ozon qatlamida ozon miqdori kam bo'lgan (50 % gacha va undan ko'proq kamaygan) katta bo'shlilikni xarakterlovchi ibora. Ozon katlamining siyraklashishi jiddiy ekologik xavf bo'lib hisoblanadi, chunki u atmosferaning barcha tiriklikni ultrabinafsha nurlardan himoya qilish qobiliyatini susaytiradi.   |
| <b>Oziq zanjiri</b>       | Piщевая цепь   | Food chain      | O'zaro aloqador bo'lgan turlar zanjiri, uning har bir navbatdagi xalqasi keyingisi uchun ozuqa bo'ladi.  |
| <b>Ob-havo</b>            | Pogoda         | Weather         | Ma'lum joyda kunning ma'lum vaqtidagi atmosfera holati. Ob-havo parametrlariga atmosfera bosimi shamol tezligi va yo'nalishi, havo namligi va harorati kiradi.   |
| <b>Xavfli chiqindilar</b> | Опасные отходы | Hazardous waste | Tarkibiga biron bir xavfli xossaga ega bo'lgan (zaharlilik, yuqumlilik, portlovchi va b.q) va atrof tabiiy muhit hamda inson salomatligi uchun xavfli miqdorda bo'lgan modda kiradigan chiqindi. Rossiyada barcha qattiq chiqindilar umumiylashtirilganda 10 % xavfli hisoblanadi (masalan, shishatola, asbestos chiqindilar, ishlatilgan gudron kislotali chiqindilar qoldig'i, ishlatilgan radiotexnik uskunalar). |

|                                       |                                 |                        |  |
|---------------------------------------|---------------------------------|------------------------|--|
| <b>Organizm</b>                       | Organizm                        | organism               | Har qanday tirik mavjudot notirik tabiatdan ma'lum xossalaringin to'plami bilan (xujayra tuzilishi va moddalar almashinishi) ajralib turadi, harakatlanish, o'sish, rivojlanish va ko'payish xususiyatlariga ega. Shuningdek organizmga irsiylanish va moslanish xususiyatlari ham xosdir.   |
| <b>Tabiiy muhitni muhofaza qilish</b> | Zashchita okrujuayushchey sredy | Environment protection | Atmosfera, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq, suv va yer yuzasini saqlashga yo'naltirilgan davlat va jamiyat tadbiri. Muhofazaning asosiy prinsipi qo'yidagilar: tabiatdan oqilona foydalanish; atrof muhitga yetkazilgan zararni qoplash va tabiatdan foydalanish; davlat ekologik ekspertizasining majburiyligi; atrof muhit holati haqida ishonchli ma'lumot olish uchun har bir kishining haqli ekanligiga amal qilish. |
|                                       |                                 |                        | <b>P</b>   |
| <b>Paleontologiya</b>                 | Paleontologiya                  | Paleontology           | Yerning butun geologik o'tmishi davrida hayvonlar va o'simliklarning qazilma qoldiqlari haqidagi va tirik tabiatning rivojlanish tarigi haqidagi fan.  |

|                           |                   |                   |   |
|---------------------------|-------------------|-------------------|---|
| <b>Issiqxona samarasi</b> | Parnikoviy effekt | Greenhouse effect | Atmosferada issiqxona gazlarining to‘planishi jarayonini ifodalovchi ibora. Ular: uglerod ikki oksidi, metan, azot oksidlari, ozon va boshqa gazzlardir. Bu gazlar (asosan SO <sub>2</sub> ). Yer yuzasidan va atmosferadan o‘tadigan uzun to‘lqinli issiqlik nurlariga to‘sinqilik qiladi, bu gazlar bilan to‘yingan atmosfera havosi xuddi issiqxona kabi ta’sir ko‘rsatadi: ya’ni yer yuzasiga katta miqdorda issiqlik o‘tkazadi, lekin Yer yuzasidan ajralib chiqadigan issiqlikni tashqariga chiqarmaydi. Bunday holning sodir bo‘lishiga atmosferaning texnogen ifloslanishi sabab bo‘ladi. |
| <b>Suv ko‘tarilishi</b>   | Podyem vodы       | flood             | Grunt suvlari sathining kritik nuqtagacha ko‘tarilishi. U yer osti suv inshootlaridagi nosozliklar, jarliklarning tekislanishi, hududning asfaltlanishi va boshqa antropogen ta’sirlar oqibatida yuzaga keladi. Uning natijasida Rossiyada 700 dan ortiq shaharlar shu jumladan Sankt – Peterburg, Moskva, Volgograd va Novosibirsk shaharlarda suv satxi ko‘tarilgan .   |
| <b>Populyasiya</b>        | Populyasiya       | population        | Ma’lum maydonni egallagan va biologik sikllarning umumiylarini maromiga ega bo‘lgan bir tur individlarining guruhi. Populyasiya muhit o‘zgarishiga o‘z genofondini qayta tiklash orqali javob beradigan evolyusiya jarayonining elementar birligi bo‘lib hisoblanadi.   |

|  |                                     |  |   |
|--|-------------------------------------|--|---|
| <b>Moddalar oqimi</b>                  | Potok veshestva                     | Feed material                          | Kimyoviy elementlar va ularni birikmalari shaklidagi moddalarni produsyentlardan redusyentlarga o'tishi.  |
| <b>Energiya oqimi</b>                  | Potok energii                       | Energy flow                            | Kimyoviy bog'lamlardan iborat bo'lgan organik birikmalar (ozuqa) shaklidagi energiyaning oziq zanjiri bo'ylab bir trofik darajadan boshqasiga o'tishi.  |
| <b>Ekologik piramidalar qoidasi</b>    | Pravilo ekologicheskoy piramidi     | Rule ecological pyramid                | Yuqori energetik darajalarning har birida to'planib boradigan energiya miqdorining jadal kamayib borish qonuniyati.   |
| <b>Chidamlilik chegarasi</b>           | Predel vynoslivosti                 | The limit of endurance                 | Bu shunday chegaraki uning ortida organizmning yashashi mumkin emas (muzli cho'llar, atmosferaning yuqori qatlamlari). Barcha organizmlar uchun har bir ekologik omil bo'yicha o'z yashash chegarasi bo'ladi. |
| <b>Ekologik tizimlar mahsulдорligi</b> | Produktivnost ekologicheskix sistem | The productivity of ecological systems | Fotosintez va xemosintez jarayonlarida hosil qilinadigan, keyinchalik ozuqa sifatida foydalanish mumkin bo'lgan kimyoviy moddalarni hosil qilishda nur energiyasini o'zlashtirish tezligi.                    |
| <b>Produsyentlar</b>                   | Produsyenty                         | producers                              | Organik moddalar hosil qiladigan va keyinchalik undan barcha organizmlar oziqlanadigan organizmlar. Bularga asosan yashil o'simliklar kiradi. Ular oziq zanjirining birinchi halkasini tashkil qiladi.        |
| <b>Sanoat zonası</b>                   | Promyshlennaya zona                 | Industrial Zone                        | Turli hil sanoat obektlari joylashgan hudud. Atrof muhitni ifloslantiruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi.  |

|  |                         |                   |   |
|--|-------------------------|-------------------|---|
| <b>Sanoat ishlab<br/>chiqarish<br/>chiqindilar</b> | Promyshlennye<br>otходы | Industrial waste  | Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda yoki ish bajarishda hosil bo‘lgan va o‘zining dastlabki istemol xossasini to‘liq yoki qisman yo‘qotgan xom ashyo va materiallar qoldig‘i. Chiqindilar qattiq (yog‘och va boshqa materiallar), suyuq, (oqova suvlari, ishlatilgan organik erituvchilar va boshqalar) va gazsimon (avtoulov chiqindi gazlari va b.q) kabi turlarga ajratiladi.   |
|  |                         |                   | <b>R</b>  |
| <b>Radioativ<br/>chiqindilar</b>                   | Radioaktivnye otходы    | radioactive waste | Tarkibida radioaktiv izotoplar konsentrasiyasi ruxsat etilgan miqdordan ko‘p bo‘lgan yadro energetikasi, harbiy sanoat, sanoat va sog‘liqni saqlash tizimining ba’zi sohalaridan chiqadigan suyuq, qattiq yoki gazsimon chiqindilar. Oziq zanjiri bo‘ylab harakatlanishi davomida bu radioaktiv elementlar hayotiy funksiyalarni tuzatib bo‘lmaydigan buzilishlariga, butun organizmning nobud bo‘lishiga olib keladi. Ularning ba’zilari million yillar davomida o‘zining halokatli zaharlilagini saqlab qoladi. |
| <b>Redusyentlar</b>                                | Redusyenty              | decomposers       | Organic qoldiqlarni parchalab ularni anorganik moddalarga aylantiruvchi organizmlar. Ular, asosan mikroorganizmlar va zamburg‘lardir.   |

|                                 |                          |                          |   |
|---------------------------------|--------------------------|--------------------------|---|
| <b>Rekultivasiya</b>            | Rekultivasiya            | Reclamation              | Tuproq unumdorligi va o'simliklar qoplamini mun'iy ravishda qayta tiklash va Yerni ekologik xavfsiz holatga keltirish. Yerning bunday buzilishlari tog' kon sanoati ishlari, yo'llar va boshqa qurilish ishlari natijasida hosil bo'lishi mumkin. Neft maxsulotlari bilan ifloslangan yerlar, gaz va boshqa shu kabi moddalar bilan ifloslangan tuproqlar ham rekultivasiyaga muhtoj. |
|                                 |                          |                          | <b>S</b>  |
| <b>Sanitariya nazorati</b>      | Sanitarnyyu kontrol      | health control           | Gigiyena tomonidan ishlab chiqilgan, inson salomatligini yaxshilash va hayotini uzaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalda qo'llash. Sanitariya nazorati sanitariya – epidemiologiya stansiyasi tomonidan amalga oshiriladi.  |
| <b>Sanitariya himoya zonasi</b> | Sanitarno-zañitnaya zona | Sanitary protection zone | Odamlarni ishlab chiqarish omillarining zararli ta'siridan himoya qilish uchun aholi yashaydigan yoki sanoat tashkilotlari joylashgan binolarni sanoat ifloslovchi manbalardan ajratib turuvchi oraliq maydon.  |
| <b>Simbioz</b>                  | Simbioz                  | Symbiosis                | Ikki tur o'rtasidagi bir-biri uchun foydali bo'lgan o'zaro aloqalarning turli shakllari bo'lib ularning yaqindan birga yashashini ko'zda tutadi. Masalan, lishayniklar – bu zamburg'lar va suv o'tlarning yaqindan birga yashashi bo'lib uning hisobiga lishayniklar eng qiyin sharoitda ham yashab qolishga va yuqori xilma – xillikka, 20 ming dan ortiq turga erishdi.             |

|                             |                       |                      |   |
|-----------------------------|-----------------------|----------------------|---|
| <b>Suv ombori</b>           | Vodoxraniliňça        | Reservoirs           | Daryo o'zanida amalda turg'un suvga ega bo'lgan, sun'iy ravishda hosil qilingan suv havzasi. Odatda daryoda damba hosil qilib yoki yerni kovlab hosil qilinadi. Chuchuk suv manbai bo'lib hisoblanadi, yerlarni sug'orish, baliq ko'paytirish va mikroiqlimni yaxshilash uchun foydalaniladi. |
| <b>Ijtimoiy ekologiya</b>   | Sotsialnaya ekologiya | Social ecology       | Jamiyat tuzilmalarining atrof tabiiy va ijtimoiy muhit bilan aloqasini o'rganuvchi fanlar majmui.   |
| <b>Stenotop organizmlar</b> | Stenotopnye organizmy | stenotopic organisms | Ekologik omillar ta'sirining juda tor doirasida yashashga qodir bo'lgan organizmlar. Sharoitning juda kam o'zgarishi ham bu organizmlarning o'limiga olib keladi. Bularga masalan, odamning ichki organlarida yashaydigan tekinoxo'rللار kiradi.  |

|   |  |                                       | T  |
|---|--|---------------------------------------|--|
| <b>Texnogen ekologik halokat</b>            | Texnogenные ekologicheskiye katastrofy | Man-made environmental disasters      | Texnik qurilmalar va inshootlardagi (AYES, tankerlar va b.q.) halokatlar, bularning oqibati atrof tabiiy muhitda salbiy o'zgarishlarga, organizmlarning ommaviy qirilib ketishiga va yirik iqtisodiy zararga olib keladi.  |
| <b>Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi</b> | Vzaimodeystviye prirody i obyestva     | The interaction of nature and society | Inson va atrof muhitning dialektik birligi. Inson Yer biomassasining bir qismi sifatida o'z yevolyusiyasi davomida atrof muhitga bevosita bog'liq bo'lgan. Asta-sekin insonning o'zi muhitning kuchli omiliga aylangan. (Antropogen omilga qaralsin). Uning tabiatga ta'siri ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. |

|  |   |  |  |
|--|---|--|--|
| <b>Tashqi muhit</b>                        | Vneshnyaya sreda                        | External environment                     | Organizm mavjud bo‘la oladigan barcha tirik va notirik tabiat sharoitlari. U alohida organizm va butun populyasiyalar holatiga, rivojlanishiga ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatadi.   |
| <b>Tabiiy muhit</b>                        | Prirodnaya sreda                        | The natural environment                  | Yashash muhiti va inson ishlab chiqarishi faoliyatining tabiiy tarkibiy qismi.   |
| <b>Tur hayotining maksimal davomiyligi</b> | Maksimalnaya prodoljitelnost jizni vida | The maximum duration of the form of life | Katta miqdorda organizmlar uchun hayotiy zarur bo‘lgan elementlar. Fosfor va azot, hamda uglerod, kislorod, kalsiy, kaliy, magniy, oltin gugurt elementlari asosiy ahamiyatga ega.   |
| <b>Tabiiy resurslar</b>                    | Prirodnye resursy                       | Natural resources                        | Tabiiy boyliklar manbai: unga foydali qazilmalar va minerallar, tuproq, suv havzalari, hayvonot va o‘simliklar olami, sog‘lomlashtirish zonalari va boshqalar kiradi. Tabiiy resurslar insoniyat tomonidan o‘zining moddiy extiyoji uchun o‘zining mayjudligini ta’minlovchi sifatida va hayot sifati darajasini oshirish uchun butun hayoti davomida foydalilaniladi. |
| <b>Tabiiy obekt</b>                        | Prirodnyiy obyekt                       | Natural object                           | O‘zining tabiiy xossalini saqlab qolgan tabiiy ekologik tizim, tabiiy landshaft va ularning tarkibiy elementlari.  |
| <b>Tabiiy landshaft</b>                    | Prirodnyiy landshaft                    | Natural landscape                        | Tabiiy omillar ta’siri ostida shakllangan va inson faoliyatida o‘zgartirilmagan landshaft . Unda geokimyoviy, elementlar va muhofaza qilinadigan landshaftlar ajratiladi.  |

|  |                                      |                                      |   |
|--|--------------------------------------|--------------------------------------|---|
| <b>Tashkilotning ekologik pasporti</b> | Ekologicheskiy passport organizatsii | Environmental organizations passport | Tashkilotning tabiiy resurslardan foydalanishi va uning atrof muhitga texnogen ta'siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlangan hujjat. Unda asosan tashkilot va uning atrofidagi ekologik holat bashorat qilinadi va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarning ijrosi nazorat qilinadi. Ekologik pasportlar shaharlarni atrof muhitga texnogen ta’sir darajasining jadallahushi bo‘yicha ularni keyinchalik rayonlashtirish uchun o‘tkaziladigan “ekologik pasportlashtirishi” jarayoniga asos bo‘lib hisoblanadi. |
| <b>Tabiiy yodgorliklar</b>             | Prirodnye pamyatniki                 | Natural monuments                    | Ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli bo‘lgan tabiiy obektlar (ma’lum hudud uchun xos bo‘lgan), bular manzarali daraxtlar, qadimiy xiyobonlar, g‘orlar, chorvoqlar bo‘lishi mumkin.   |
| <b>Tuproq meliorasiyasi</b>            | Melioratsiya pochv                   | soil Reclamation                     | Tuproq umumdorligini yaxilashga qaratilgan tadbir. Gidrotexnik meliorasiya – sug‘orish, quritish, sho‘r tuproqni yuvish; fizik maliorasiya – qo‘mlash, loyqalash va shu kabilar; kimyoviy meliorasiya – gipslash, oksidlash va b.q.   |
| <b>Tabbiy muhit komponentlari</b>      | Komponentsy prirodnoy sredy          | The components of the environment    | Tuproq, yer usti va yer osti suvlari, atmosfera havosi, o‘simgiklar, hayvonot dunyosi va boshqa organizmlar, hamda yer atmosferasining ozon qatlami va yer atrofidagi fazoviy bo‘shliqdan tashkil topgan bo‘lib, ular hammasi birgalikda Yerda hayot mavjud bo‘lishi uchun qulay sharoitni ta’minlaydi.   |
| <b>Tabiiy ekotizim</b>                 | Prirodnye ekosistemy                 | Natural ecosystems                   | Tabbiy muhitning ob’yektiv tarzda mavjud bo‘lgan qismi, u hududiy chegarasiga ega bo‘lib, unda tirik va notirik elementlar yagona birlik sifatida o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi va bir-biri bilan modda va energiya almashinish bo‘yicha bog‘langan bo‘ladi.   |

|   |                                    |                                   |   |
|---|------------------------------------|-----------------------------------|---|
| <b>Tabiatda geologik (katta) moddalar aylanmasi</b> | Geologicheskiy krugovorot          | Geological cycle                  | Moddalarni biosfera va Yerning chuqur gorizontlari o‘rtasida qayta taqsimlaydigan aylanmasi. Quyosh energiyasini Yerning eng chuqur qatlamlaridagi energiyasi bilan o‘zaro ta’siriga asoslangan.  |
| <b>Tuproq umumдорлигি</b>                           | Plodorodiye pochvsi                | soil fertility                    | Tuproqning o‘simliklarni ozuqa moddalari, havo, biotik va fizikkimyoviy muhit bilan ta’minlash xususiyati. U qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi va yovvoiy o‘simliklar shakllarining biogen mahsuldarligiga ta’sir qiladi.  |
| <b>Tuproq degradasiyasi</b>                         | Degradatsiya pochvsi               | soil degradation                  | Gumus qatlaming kamayishi va hosildorligining pasayishi bilan birga boradigan tuproq sifatining asta-sekin yomonlashuvi. Degradasiya tuproqqa mineral o‘g‘itlarning haddan tashqari ko‘p solinishi, tuproq unumdar qatlaming yemirilishi, botqoqlanish va boshqalar natijasida kelib chiqadi. |
| <b>Turlar xilma-xilligini saqlash</b>               | Soxraneniye vidovogo raznoobraziya | Preservation of species diversity | Populyasion turlar tarkibini muhofaza qilishga, turlar sonini ular mavjud bo‘lishini ta’minlaydigan darajada saqlab turishga qaratilgan tadbirlar majmui (u siyosiy va diniy bo‘lishi mumkin).  |
| <b>Trofik tuzilma</b>                               | Troficheskaya struktura            | Trophic structure                 | Ma’lum jamoa turlari o‘rtasidagi barcha trofik (oziq) aloqalarining sxemasi.  |
|   |                                    |                                   | U   |

|                          |                      |                    |   |
|--------------------------|----------------------|--------------------|---|
| <b>Urbanizasiya</b>      | Urbanizasiya         | Urbanization       | Shaharlarning o'sish va rivojlanish jarayoni, mamlakatda, mintaqada, dunyoda shahar aholisining o'sishi, shahar algomeratlarning megapolislarga aylanishi. Shaharlar sun'iy, inson yashaydigan negativ muhitga aylanadi: aholi tig'izligidan, kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar miqdorining oshishi, muhitning ifloslanishi, shovqinning ko'payishi oqibatida shaharliklar salomatligi darajasi pasayadi. 2007-yilda Yer yuzidagi urbonizasiyalashgan hududning umumiy maydoni hayot kechirish mumkin bo'lgan quruqlik hududining 20 % ni tashkil qildi.                                  |
| <b>O'rmon</b>            | Les                  | Forest             | Atrof tabiiy muhitning muxim tarkibiy qismi. U asosiy kislorod manbai bo'lib hisoblanadi, flora va faunaning genefondini saqlaydi, iqlimi yumshatadi, tuproqni suv va shamol yeroziyasidan ko'chish va boshqa noxush jarayonlardan ximoya qiladi; ular egallagan hududda suv rejimini boshqaradi; insonning ruhiyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatuvchi sanitariya – gigiyenik sharoit yaratadi. Shuningdek o'rmon yog'och manbai sifatida bebaho tabiiy resurslardir. Rossiya yeng katta yog'och zaxirasiga ega: undagi o'rmonlarning umumiy maydoni butun dunyo o'rmon resurslarining qismiga teng. |
|                          |                      |                    | <b>F</b>  |
| <b>Fotosintez</b>        | Fotosintez           | Photosynthesis     | Faqat yashil o'simliklar uchun hos bo'lgan murakkab jarayon, uning natijasida karbonat angidrid va suvdan quyosh nuri ishtirokida organik modda hosil bo'ladi va erkin kislorod ajralib chiqadi.  |
| <b>Fotokimyoviy smog</b> | Fotoximicheskiy smog | Photochemical smog | Smog yozda avtomobillardan chiqadigan chiqindi gazlar bilan to'yingan havoga Quyosh radiasiyasining faol ta'siri ostida sodir bo'ladi. Masalan, 1971-yilda Tokioda fotokimyoviy smog 28 ming odamning zaharlanishiga olib kelgan.   |

|                                   |                                   |                                  |  |
|-----------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------|--|
| <b>Fazoviy axlatxona</b>          | Kosmicheskiy musor                | Space debris                     | Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi orbitaga chiqarilgandan so'ng 4500 dan ortiq fazoviy uskunalar olib chiqilgan, shulardan 450 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, 1500 tadan ortiqrog'i esa shunchaki o'z orbitasi atrofida aylanib yuribdi. Bir – biri bilan va boshqa fazoviy jismlar bilan to'qnashib bu uskunalarining qoldiqlari parchalanmoqda. Olimlarning hisoblashlaricha hozir Yer atrofida 10000 dan ziyod yirik qoldiqlar va millionlab mayda qoldiqlar aylanib yuribdi. Bunday fazoviy axlatxona uchiriladigan fazoviy uskunalar uchun juda xavflidir. |
| <b>Fazoviy monitoring</b>         | Kosmicheskiy monitoring           | Space monitoring                 | Yerning sun'iy yo'ldoshlari yordamida fazodan muhit holatini kuzatish. Katta hududdagi ma'lumotlarni olishga imkon beradi, bu esa sodir bo'lishi mumkin bo'lgan dovullar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlarni oldindan bashorat qilishda muhim o'rinni tutadi.  |
|                                   |                                   |                                  | <b>X</b>   |
| <b>Kimyoviy qiro</b>              | Ximicheskoye orujiye              | Chemical weapon                  | Ommaviy qirg'in quroli. Jangovar zaharovchi moddalar – gazlar, suyuqliklar va qattiq moddalar yordamida butun biotalarni zaharlab ta'sir ko'rsatadi. Raketeralar, minalar, bombalar yordamida yoki samolyotlardan purkab qo'llaniladi. Kimyoviy qurollar katta miqdorda Vyetnamdagagi urushda qo'llanilgan, unda 4 yil ichida 10 ming odam o'lgan va bir milliondan ortiq odamlar nogiron bo'lib qolgan.   |
| <b>Hududning ekologik sig'imi</b> | Ekologicheskiy yomkost territorii | Environmental Capacity territory | Tabiiy muhitning biron-bir antropogen ta'sirni ekotizimning asosiy funksiyasini buzmasdan o'tkazishga bo'lgan potensial imkoniyati.  |
| <b>Yirtqichlik</b>                | Хищничество                       | Predation                        | Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tipi, unda bir tur vakillari boshqa tur vakillari uchun ozuqa bo'lib hizmat qiladi. Yirtqichlik faqat hayvonlar va o'simliklar o'rtasida ham keng tarqagan aloqa shaklidir, chunki, o'txurlik ham o'ziga xos yirtqichlikdir.   |

|                                     |                                |                         | <b>Ch</b>   |
|-------------------------------------|--------------------------------|-------------------------|---|
| <b>Odam</b>                         | Chelovek                       | Human                   | Yer yuzidagi organizmlar rivojlanishining yuqori bosqichi. U o‘ziga xos intellektga, nutqqa, ijodiy qobiliyatga, mehnat qurollari yaratish qobiliyatiga va ma’naviy ongga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Odamning DNK mollekulalaridagi ginetik dasturi uning eng qimmatli tabiiy resursi bo‘lib hisoblanadi.   |
| <b>Chegaralararo ifloslantirish</b> | Transgranichnoye zagryazneniye | Transboundary pollution | Bir mamlakat hududidan boshqa mamlakat hududiga o‘tadigan ifloslantirish. Masalan, 1994-yilda Rossiyaning Yevropa qismiga uning geografik holati tufayli Germaniya, Ukraina va boshqa mamlakatlardan 1,2 mln.t. oltingugurt birikmalari kirib kelgan, shu vaqtda Rossiyadan boshqa mamlakatlarda undan 6,5-marta kam ifloslanish o‘tgan.  |
| <b>Insoniyat</b>                    | Chelovechestvo                 | Humanity                | Yer yuzida yashayotgan barcha odamlardan tashkil topgan populyasision tizim. Bu populyasiyaning o‘sishi tabiiy resurslar va hayot sharoiti bilan, genetik va ijtimoiy –iqtisodiy jarayonlar bilan chegaralanadi. Aholining o’sish dinamikasini maxsus fan – demografiya o‘rganadi. U o‘tmishda odamlar sonining o‘zgarishi sabablarini aniqlaydi va kelajakda bu o‘zgarishlarning qanday borishini bashorat qiladi. Rossiyada keyingi 10-15 yilda demografik holat kritik holga kelib qoldi: o‘lim tug‘ilishga nisbatan 2-marta oshib ketgan. |
| <b>Qora ro‘yxat</b>                 | Cherniy spisok                 | Black list              | Qirilib ketgan o‘simlik va hayvonlar turlarining nomi yozilgan ro‘yxat nomi. Ba’zi bir tabiatda yo‘qolib ketgan o‘simliklar botanika bog‘larida, hayvonlar esa muzeylarda qotirligian holda saqlangan.  |
|                                     |                                |                         | <b>Sh</b>   |

|                        |                 |                  |  |
|------------------------|-----------------|------------------|--|
| <b>Shovqin ta'siri</b> | Vliyaniye shuma | Effects of noise | Zararli fizik ta'sir shakli. Ovoz tebranishlari tabiiy darajasining oshishi natijasida hosil bo'ladi, inson uchun jiddiy fiziologik oqibatlarga olib keladi. Shovqin natijasida oromning buzilishi odatda antropogen shovqin manbalari (transport, maishiy uskunalar, sanoat korxonalar) ta'sirida hosil bo'ladi. Bunda odamda toliqish kuchayadi, aqliy faollik va ishlab chiqarish imkoniyati pasayadi, asab kasallikkari paydo bo'ladi. |
|------------------------|-----------------|------------------|--|

# **O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



WEB-SAYT